FVV
Vaziyat

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

2026-YIL 30-IYUL № 31 (1076)



SADOQAT BILAN XIZMAT, JASORAT BILAN HIMOYA!

Xavfsizlikni ta’minlashda davlat organlarining hamkorligi



FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI MARKAZIY APPARATIDA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA BUNDAY VAZIYATLARDA HARAKAT QILISH DAVLAT TIZIMINING 2026-YIL BIRINCHI YARIM YILLIGI YAKUNLARIGA BAG‘ISHLANGAN MUHOKAMA YIG‘ILISHI BO‘LIB O‘TDI. UNDA, VAZIRLIK VA IDORALARNING RAHBARLARI ISHTIROK ETDI.

Tadbir avvalida Favqulodda vaziyatlar vazirligi avtoturargohida tashkil etilgan “Zamonaviy yong‘in-qutqaruv avtotexnikalarining saf ko‘rigi” shuningdek, favqulodda vaziyatlarni barvaqt aniqlashga mo‘ljallangan xavfdan ogohlantiruvchi hamda video kuzatuv vositalari taqdimoti o‘tkazildi.

Asosiy muhokamalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaziy apparatining katta majlislar zalida bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Ochilboy Ramatov kirish so‘zi bilan ochib berib, mamlakatda aholi va hududlar xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishning ustuvor ahamiyatiga to‘xtaldi.

Yig‘ilishda Favqulodda vaziyatlar vaziri, general-mayor Azizbek Ikromov O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda



vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi tomonidan 2026-yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar va oldinda turgan ustuvor vazifalar xususida tahliliy-tanqidiy fikrlarini bayon qildi.

2026-yilning o‘tgan olti oyi davomida amalga oshirilgan ishlar muhokamasidan so‘ng sohaga doir muammoli masalalar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari yuzasidan kelgusi davr uchun muhim vazifalar belgilab olindi.

Ta’kidlanganidek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va aholi xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash kelgusi davrdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FVV Axborot xizmati

TARIX SABOQXONASIGA AYLANGAN YOZ

YOZ OYLARI ODATDA MAKTAB VA TALABALAR UCHUN O‘QISHDAN BIR MUDDAT NAFAS ROSTLASH, DAM OLISH PALLASI HISOBLANADI. BIROQ BU YIL TOSHKENT SHAHRI VA VILOYATIDA BOSHLANGAN YANGI TAJRIBA YOZGI TA’TILGA BUTUNLAY BOSHQACHA MA’NO BAXSH ETMOQDA.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-iyundagi tegishli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, joriy yilning 10-iyunidan boshlab mahalla aholisi, umumta’lim maktablari o‘quvchilari, oliy va kasbiy ta’lim tashkilotlari talaba-o‘quvchilari hamda professor-o‘qituvchilari uchun Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi”, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmualari, shuningdek, “Temuriylar tarixi” va “O‘zbekiston tarixi” davlat muzeylariga tashriflar tashkil etila boshlandi. Loyihaning ko‘lami haqida bir mulohaza kifoya: bu tadbirlarga Toshkent shahri va viloyatidan jami 140 mingdan ziyod mahalla fuqarolari, maktab o‘quvchilari, talabalar va ustozlar jalb etilishi rejalashtirilgan. Aynan shu miqyos loyihaning naqadar jiddiy va ommaviy tus olganidan dalolat beradi.

Ushbu ezgu ishlarda O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda mas’ul vazirlik va idoralarning hamkorligi loyihaning keng qamrovda va izchil amalga oshirilishini ta’minlamoqda.

Bu tashabbusning tagida chuqur va samimiy maqsad yotibdi. Avvalo, u Vatan ozodligi va mustaqilligi yo‘lida jon fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirishga, yurt sarhadlarini himoya qilish va xalqimiz tinchligini ta’minlash yo‘lida halok bo‘lgan harbiy





xizmatchilar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari xotirasini yod etishga qaratilgan. Ikkinchidan, loyiha yosh avlodni vatanparvarlik ruhida, ona yurtga sadoqat va milliy tarixga bo‘lgan chuqur hurmat tuyg‘usi bilan tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ygan. Zero, tarixni kitob sahifalarida o‘qish bilan uni yodgorlik toshlari, muzey eksponatlari orasida, o‘z ko‘zi bilan ko‘rib his etish o‘rtasida katta farq bor.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, avvallari yoz oylari muzeylar uchun nisbatan “sokin” mavsum hisoblanardi. Joriy yilda esa muzeylar dam olish kunlari ham to‘xtovsiz faoliyat yuritmoqda. Bu esa tashriflar sonining va muzeylar daromadining o‘tgan yilga nisbatan ikki-uch barobarga oshishiga olib keldi. Boshqacha aytganda, loyiha nafaqat tarbiyaviy, balki muzeylarning iqtisodiy faolligini oshirishda ham ijobiy natija bermoqda.

Amalga oshirilayotgan ishlarning samarasi raqamlarda ham o‘z aksini topmoqda. Atigi bir oyga yaqin vaqt ichida 4 ta muzey va yodgorlik majmuasiga 50 mingdan ziyod fuqaro tashrif buyurdi. Ularning orasida 300dan ortiq mahalladan kelgan aholi vakillari, yuzlab maktablardan tashrif buyurgan o‘quvchilar, shuningdek, o‘nlab oliy va kasbiy ta’lim muassasalari talaba-professorlari bor. Oliy ta’lim tizimida esa bu tajriba sentyabr-oktyabr oylarida “Mustaqillik soatlari” mashg‘ulotlari doirasida davom ettirilishi rejalashtirilgan.

Moliyaviy jihatdan ham loyiha puxta o‘ylangan asosga ega. Muhimi shundaki, har bir ishtirokchi uchun belgilangan kirish to‘lovi juda ramziy darajada bo‘lib, bu oila byudjetiga hech qanday sezilarli yuk solmaydi.

Loyihaning jamoatchilik e’tiborini qanchalik tortayotganini ommaviy axborot vositalaridagi faollik ham ko‘rsatadi: bir yarim oyga yaqin vaqt ichida tadbirlar haqida 280dan ortiq material e’lon qilindi bular markaziy telekanallar, radiokanal, internet nashrlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Natijada bu materiallar jami 2 million 500 mingdan ziyod marta ko‘rildi. Shu bilan birga, tadbirlar yuzasidan 24 ta ijtimoiy rolik ham tayyorlandi.

Loyihaning kelajagi ham e’tiborga molik. Tajriba Toshkent mintaqasi bilan cheklanib qolmay, kelgusida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlardagi muzeylarga ham tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Yaqin kelajakda butun mamlakat bo‘ylab yoshlar uchun tarix bilan yuzma-yuz uchrashuv imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Muzeylararo 90 kun” loyihasi oddiy bir ma’muriy tadbir emas, balki yosh avlodni milliy tarix, ajdodlar mardligi va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan puxta o‘ylangan tizimli ishdir. Yozgi ta’til endi faqat dam olish emas, balki milliy qadriyatlarni anglash va tarixiy xotirani saqlash davriga aylanmoqda. Va bu kelajak avlodning ma’naviy barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim qadam, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jaloliddin MANNONOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi yetakchi mutaxassisi

CHILLADAGI CHALG‘ITUVCHILAR



YOZNING ENG QIZIGAN DAVRI, ISSIQ AYNI KUCHINI KO‘RSATAYOTGAN KUNLARDAMIZ. YURTIMIZ HUDUDIDA ANOMAL ISSIQ KUZATILIB, ASTA-SEKIN CHEKINA BOSHLADI. BUNDAY PAYTDA AHOLI SALOMATLIGI, XAVFSIZLIGI HAMDA ZARUR RESURSLAR BILAN TA’MINLANGANLIGI DAVLAT ORGANLARI OLDIGA QO‘YILADIGAN USTUVOR VAZIFAGA AYLANADI. FUQAROLAR ESA KUZATILAYOTGAN MA’LUM TABIIY SHAROITDA O‘ZLARI VA YAQINLARINI ASRASHI, FVV HAMDA BOSHQA MAS’UL TASHKILOTLARNING OGOHLANTIRUV VA TAVSIYALARIGA AMAL QILISHLARI LOZIM. SHU BILAN BIRGA, YANA BIR MUHIM MASALA BOR. MAVJUD TABIIY MUHIT – OB-HAVO HAQIDA VAHIMA UYG‘OTUVCHI, HOLATNI BO‘RTTIRIB KO‘RSATUVCHI, ASOSLANMAGAN MA’LUMOTLARGA ISHONMASLIK, QOLAVERSA, BUNDAY MAZMUNDAGI AXBOROTNI TARQATMASLIK TALAB ETILADI. OB-HAVO VA BOSHQA TABIIY SHAROIT HAQIDAGI MA’LUMOTLARNI FAQATGINA RASMIY MANBALARDAN KUZATISH, NORASMIY, ISHONCHSIZ OAV VA BLOGLAR TARQATGAN AXBOROTNI, ALBATTA, TEKSHIRISH ZARUR.



Ayonki, har yili yoz va qish chillasi – yilning eng issiq va sovuq kunlarida norasmiy manbalar mamlakatimizning turli hududlaridagi havo harorati haqida vahima va qo‘rquv uyg‘otuvchi, ortiqcha tashvishga soluvchi mazmundagi yolg‘on yoki asoslanmagan xabarlarni tarqata boshlaydilar. Quyosh tig‘ida soatlab qizib turgan qozonda yoki asfalt ustida pishgan tuxumlar, qizigan mashinalardagi ko‘rsatkichlar, tuproq ustidagi o‘ta yuqori harorat darajasi shunday mashhur “o‘lchov”lardan.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan bu kabi videotasvirlar noto‘g‘ri talqin bo‘lib, odatda ular mashhurlik, ko‘proq obunachi, layk, izohlar yig‘ish, hayp(hype) uchun hamda ba’zi afsusli holatlarda aholi orasida qasddan vahima uyg‘otish maqsadida ham tarqatiladi. Bunday kontentga aldanib qolmaslik, hushyorlik va ogohlik shart. Buning uchun vaziyatga ilmiy tomondan qanday baho berilishi, harorat qanday o‘lchanishi, anomal ob-havo sharoitida qanday yo‘l tutish kerakligi haqida bilimga ega bo‘lish, rasmiy ma’lumotlarni kuzatib borish maqsadga muvofiq. Aks holda shundog‘am ob-havo ta’sirida qiyinlashib turgan turmushimizni yanada murakkablashtirib, o‘zimiz va yaqinlarimizni tashvishga solib qo‘yishimiz mumkin.

Albatta, “tuxum pishgani, tuproq usti yo mashina harorati haddan ortiq yuqori ekanligi fakt-ku”, degan fikr uyg‘onishi mumkin. Ammo masalaning boshqa tarafi bor. Yuqoridagi kabi holatlar inson nafas oladigan, kishi salomatligiga asosiy ta’sir qiladigan havo harorati bilan bir narsami? Aslo yo‘q.

Termometr deb nomlanuvchi hammaga tanish moslamaning turfa xili bo‘lib, ularning har biri har xil haroratni o‘lchash uchun xizmat qiladi. Inson tana harorati, ob-havo, tuproq, yuza(asfalt, beton, metal, devor kabilarning sirti), sanoat uskunalari va mexanizmlar harorati(jumladan, mashina) kabilarni bunga misol qilib keltira olamiz.

Ana endi bevosita asosiy mavzuga kelindi. Butun dunyo meteorologiya tashkilotlari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi (Uzgidromet) ham doimiy ravishda inson nafas oluvchi “havo harorati”ni prognoz qiladi va aholiga taqdim etadi. Yuqoridagi kabi tushunmovchiliklar bo‘lmasligi uchun havo haroratini o‘lchashning jahon bo‘yicha aniq standarti o‘rnatilgan bo‘lib, u inson bevosita nafas oladigan havoni o‘lchaydi. Qizigan jismlar, asfalt, beton sirtlari esa butunlay boshqa ko‘rsatkichlar bo‘lib, hamisha havo haroratidan farq qiladi. Masalan, havo harorati 40 darajadan oshganda asfalt sirti 60-80 darajagacha qizib ketishi mumkin.

Xo‘sh, havo haroratini o‘lchashning xalqaro standarti qanday?! Bu savolga barchamiz maktab chog‘idayoq javob topganmiz, ammo ko‘pchilik bu saboqni unutib yuborgan bo‘lishi mumkin.

Havo harorati jahon standartiga ko‘ra yerdan 1,5-2 metr balandlikda (taxminan inson bo‘yi bilan baravar), ochiq maydonda joylashtiriladigan maxsus meteorologik kabina ichidagi termometrik moslamalar yordamida o‘lchanadi. Bunda kabina atrofiga asfalt yotqizilmagan bo‘lishi, havo haroratini sun’iy oshirishi yoki tushirishi mumkin bo‘lgan vositalardan uzoqda bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Kabina havo haroratini o‘lchovchi uskunani to‘g‘ridan-to‘g‘ri quyosh tushishi va yog‘ingarchilikdan asraydi. Uning oq rangda bo‘lishidan maqsad quyosh nurlari ta’sirida kabina ichining ortiqcha qizib ketmasligidir. Panjarali devorlar esa kabina ichida shamol aylanib turishini ta’minlaydi. Dunyoning turli qismlaridagi ob-havoni o‘zaro solishtirish, taqqoslash imkoni bo‘lishi, havoning haqiqiy haroratini o‘lchashga tashqi omillar xalal bermasligi hamda doimiy ravishda aniq hisob-kitoblarni olib borishning umumiy tartibi bo‘lishi uchun butun dunyo mana shunday umumiy qoidalar asosida o‘rnatiladigan meteorilogik kabinalardan foydalanadi.

Uni 1864-yilda shotland muhandisi Tomas Stivenson ishlab chiqqan. Shu sabab inglizzabon mamlakatlarda bu kabinalarni “Stevensin screen” deb atashadi. XIX asr oxiridayoq ko‘plab mamlakatlar shu tizim asosida havo haroratini o‘lchay boshladi. Keyinchalik Jahon Meteorogiya Tashkiloti (WMO) ushbu usulni xalqaro meteorologik standart sifatida tavsiya etdi.

Havo harorati qanday o‘lchanishi, O‘zgirdromet ma’lumotlarining mashina ko‘rsatkichlari, tuproq yuzasi haroratiga nima uchun mos emasligi, qay bir ma’lumot ilmiy asoslangan, rost va aniqligi haqida xulosa qilinar ekan, yangi savol paydo bo‘ladi. Unday bo‘lsa, hozir anomal issiq emasmi? Anomal issiq yoki sovuq nima? Ular qachon yuz beradi?

Anomal (yunoncha anomalos – “notekis”, “me’yordan chetga chiqqan”) – odatiy holatdan, me’yordan yoki doimiy qiymatdan sezilarli farq qiladigan ko‘rsatkichlarni anglatadi.

Anomal harorat ma’lum hududning ko‘p yillik iqlimiy me’yoridan sezilarli farq qiluvchi haroratdir. Masalan, odatda iyulda +36°C kuzatiladigan joyda +43°C qayd etilsa, buni anomal issiq sifatida baholash mumkin. Yoki aksincha, deyarli har yili qishda + 5°C dan sovuq havo harorati kuzatilmaydigan yerlarda -10 -12 °C sovuq kuzatila boshlasa, demak anomal sovuq kirib kelgan hisoblanadi. Shunday qilib, anomal issiqning zarari va xavflaridan himoyalanish, salomatligimizni asrash uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish joiz.

Avvalo, tez-tez suv iching, chanqoq bosishini kutmang. Spirtli, juda shirin va gazli ichimliklarni cheklang. Yengil, och rangli va tabiiy matodan tikilgan kiyim kiying. Bosh kiyim (kepka, shlyapa) va quyoshdan saqlovchi ko‘zoynaklar taqing. Quyosh nuri, havo isishi eng kuchli bo‘ladigan, taxminan, 11:00–17:00 oralig‘ida ochiq havoda uzoq qolmang. Keksalar, bolalar, homilador ayollar hamda yurak-qon tomir kasalligi bor kishilarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Og‘ir jismoniy mehnat talab qiladigan ishlarni saharda yoki kechqurun bajarishga harakat qiling. Mashinada bolalar yoki uy hayvonlarini hech qachon yolg‘iz qoldirmang. Anomal issiq davrida avtomobil saloni harorati bir necha daqiqada ham xavfli darajaga ko‘tarilishi mumkin. Yo‘lga otlansangiz, yoningizda ichimlik suvi bo‘lsin.

Xonalarni ertalab va kechqurun shamollating. Kunduz kuni quyosh tushadigan derazalarga parda tuting. Elektr tarmog‘iga ortiqcha yuklama bermaslikka harakat qiling.

O‘zbekistonning janubi eng issiq hududlar hisoblanib, Termizda yurtimiz hududidagi eng yuqori daraja – +50 °C kuzatilgan. Bu yurtimizda qayd etilgan eng yuqori harorat hisoblanadi. Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari nisbatan salqin bo‘lib, saratonda ham havo harorati mamlakatning boshqa qismlariga qaraganda pastroq bo‘ladi. FVV axborotiga ko‘ra, bu yil kuzatilgan anomal issiqning asosiy davri – 18-20-iyul kunlari respublika hududining katta qismida havo harorati 43-45 darajagacha, janubda va cho‘l hududlarda 46-48 darajagacha ko‘tarildi. Vazirlik va mas’ul tashkilotlar holat yuzasidan aniq va batafsil hisobot berib, zarur chora-tadbirlarni ko‘rib bormoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, anomal issiq sharoitida vahimali post hamda videoroliklarga emas, ilmiy asoslangan va rasmiy ma’lumotlarga tayanish barcha uchun foydalidir.

Ishonchsiz axborotlarga aldanmaslik, anomal issiq davrida havo haroratini to‘g‘ri talqin qilish hamda mutaxassislar tavsiyalariga amal qilish nafaqat yolg‘on xabarlar tarqalishining oldini oladi, balki inson salomatligi va jamiyat xavfsizligini asrashga ham xizmat qiladi.

Muhammadali PO‘LATOV,
jurnalist

MILLIY DAVLATCHILIK TARIXI HAQIDA GAP KETGANIDA BEIXTIYOR TALABALIK DAVRIMIZDAGI SUHBATLARNI SOG‘INAMAN. FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR NAJMIDDIN KOMILOV BU MAVZUDA GAP BOSHLASALAR BIZ TALABALAR DARC TUGAGANIDAN SO‘NG HAM USTOZNI SAVOLLARGA KO‘MIB TASHLARDIK. DOMLA NIHOYATDA KAMTAR VA BAG‘RIKENG INSON EDILAR. YUQORI LAVOZIMLARDA ISHLASA-DA, QIMMATBAHO MASHINALARDA YURISH TUGUL, HATTO METRO VA AVTOBUSGA CHIQMASDAN KO‘PROQ PIYODA YURISHNI MA’QUL KO‘RARDILAR. ULARNING BU ODATLARI BIZGA JUDA QO‘L KELAR, O‘ZIMIZNI QIZIQTIRGAN SAVOLLAR YOMG‘IRINI ASLO TO‘XTATMASDIK. DOMLAGA ERGASHIB ESKI SHAHARDAGI UYLARIGACHA BIRGA KIRIB BORGAN PAYTLARIMIZ KO‘P BO‘LGAN.



MILLIY DAVLATCHILIK TARIXI...

Yoxud davlat boshqaruv shakli va uning rivojlanishi



– Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz asarlarida milliy davlatchiligimiz ma’rifatining butun bir konsepsiyasi o‘z ifodasini topgan, – deya gap boshlardilar ustoz Najmiddin Komilov. – Mazkur konsepsiya bir jihatdan, islomiy manbalarda ifodalangan adolat g‘oyalarini, ikkinchidan, qadimgi yunon faylasuflari va hazrat Forobiy qarashlarini, uchinchidan, tasavvufdagi shoh-u darvesh qiyosiga qurilgan fikr-mulohazalarni uyg‘unlashtirib, qamrab olganligi bilan katta ahamiyatga egadir. Ammo shunisi borki, Navoiy uzoq yillar Husayn Boyqaro saltanatida yuqori lavozimlarda ishlab, o‘zi ham siyosat va rayosatda, boshqaruv ishlarida obdon tajriba orttirdi, ko‘p hollarda zulm va bedodliklarning oldini olishga muyassar bo‘ldi. Navoiyning dono nasihatlari, amaliy tadbirlari tufayli Husayn Boyqaro podsholigida barqarorlik hukm surib, ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi, obodonchilik yuzaga keldi. Bu hayotiy tajriba mutafakkir bobomizning davlat arbobi sifatidagi qarashlarida aks etgan.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy ona tilida ulug‘ adabiy asarlar yozib, xalqning ma’naviy olamini yuksaltirish barobarida temuriylar davlatining barqarorligi va davomiyligi uchun ham kurashib, bu ishda o‘zini mas’ul deb bildi. Shu bois, u nainki do‘sti Husayn Boyqaroga nasihat qilish, uni ogohlantirib turish, ulug‘ va ezgu ishlarga yo‘llash bilan cheklandi, balki Boyqaro farzandlari – shahzodalarga ham davlatchilik asoslarini, Amir Temur o‘gitlari va an’analarini o‘rgatish, tanbeh va nasihatlar orqali ta’sir etib turishni o‘zining asosiy burchi deb bildi.

Husayn Boyqaro o‘g‘illari orasida taxt va yurt talashish hali otalari tirikligidayoq boshlanganini yaxshi bilamiz. Ular ba’zan Boyqaroga bo‘ysunmay, mustaqil harakat qilishga intilardilar. Bu hol Alisher Navoiyni qattiq tashvishga solgan. Shuning uchun u har bir shahzodaga alohida murojaat qilib, ota izmidan chiqmaslikka da’vat etadi. Ayniqsa, shoir katta o‘g‘il Badiuzzamon Mirzoga umid bog‘lab, anchayin achchiqroq gaplarni aytadi: “Ota rozi – Xudo rozi, otaga qarshi isyon – Xudoga qarshi isyon bilan barobar. Mening so‘zlarim og‘ir botsa ham aytaman, – deb davom etadi Navoiy Badiuzzamonga yozgan bir maktubida. – Chunki nasihatlarim beg‘araz, niyatim ezgulikdir. Yoshingiz uzun bo‘lsun. Andoq kam voqe’ bo‘lubdirkim, bu qulning so‘zin rad qilmish o‘lg‘aysiz. Emdi dag‘i bu qulning joni kuyganda, o‘zgalarning etagi kuymas”. Ushbu maktub ta’sirida Badiuzzamon Mirzo otasi bilan yarashib, uzr so‘raydi va bir urushning oldi olinadi.

Biz bejiz so‘zimiz avvalida milliy davlatchilik tarixidagi ba’zi voqeliklarni tilga olmadik. Chunki davlat va jamiyat institutlarining o‘zaro nisbati, fuqarolar hayotiga davlatning aralashuvi chegaralari siyosiy fenomen tarzida turli mamlakatlarda muayyan tarixiy shakllarga egaligi saqlanib qolaveradi.

Davlatimiz rahbari xalqimiz, xususan, yoshlarimizni davlatchiligimizning shonli 3000 yillik tarixi bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega ekanini doim ta’kidlab keladi. Darhaqiqat, bugungi O‘zbekiston mintaqasi qadim zamonlardan to hozirgacha ko‘plab xalqlarning boshini mushtarak taraqqiyot jarayonlari atrofida birlashtirib kelgan. Bu hududlar taqdirlari tutash ko‘plab xalqlar uchun ilk beshik vazifasini o‘tagan. Shu sababli, tarixga oid xoh turkiy, xoh forsiy, xoh xitoy yoki hindiy, yunon, arabiy, boringki, har qanday yozma manbaga diqqat qilinsa, mazmuni va bergan ma’lumotlariga ko‘ra ular O‘zbekiston xalqlari o‘tmishi va davlatchiligi uchun mushtarak bo‘lib chiqadi. Buning tub mohiyati O‘zbekistonning muhim geografik mintaqada joylashgani va qadim zamonlardan boshlab yagona tarixiy madaniy mintaqa bo‘lib kelganidir.

Milliy davlatchilik tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Turon zaminida ko‘plab shonli davlatlar o‘z hukmronligini o‘rnatgan. Masalan, Qadimgi Baqtriya davlati miloddan avvalgi VII asrda Markaziy Osiyoda tashkil topgan. O‘sha paytlarda Marg‘iyona va So‘g‘diyona hududlari ham uning siyosiy va madaniy ta’sirida bo‘lgan. Katta Xorazm davlati esa Xorazm hududida tashkil topib, Xorazmdan tashqarida bo‘lgan yerlarni ham birlashtirgan. Markazi Ko‘zaliqir qal’asi edi. Miloddan avvalgi VI asrda Turon ahamoniylar tomonidan bosib olinadi.

Tariximizning ayni davridan turib sarhisob qiladigan bo‘lsak, Yunon-makedon hukmronligi, Qadimgi Xorazm, Qang‘ davlati, Davan, Kushon, afrig‘iylar, xioniylar, kidariylar, eftaliylar hukmronliklari yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Keyin esa turk xoqonligi, arab xalifaligi, Somoniylar, G‘aznaviylar davlati, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari bunyod bo‘lgan. Chig‘atoy ulusi esa Amir Temur o‘z davlatini tuzguniga qadar Chingizxonning Chig‘atoy ismli o‘g‘liga mulk qilib bergan ulus tarkibida bo‘lgan.

Va nihoyat Amir Temur va temuriylar davlati hukmronligi boshlandi. Mazkur shonli va qudratli davlat 1370-yildan to 1507-yilga qadar mavjud bo‘lgan. Milliy davlatchiligimizning poydevori ayni davrda yaratildi, desak adashmagan bo‘lamiz.

1501–1601-yillarda Shayboniylar davlati hukm surdi. So‘ngra Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari davri boshlandi. Va bu xonliklar 1876-yilgacha mavjud bo‘ldi.

1865-yildan 1917-yilgacha Rossiya imperiyasi – Turkiston generel-gubernatorligi o‘rnatildi. 1917–1991-yillar esa Sovet davlati, ya’ni SSSR hukmronligi kechgan davrni o‘z ichiga oladi.

Va nihoyat 1991-yilda xalqimiz o‘zining asriy orzusiga erishdi. Mustaqil va erkin davlat – O‘zbekiston Respublikasi tashkil topdi.

Endi moziy sahifalaridan bevosita bugungi kunimizga qaytadigan bo‘lsak, istiqlol tufayli tarixiy davlatchiligimiz qayta tiklandi. Mamlakatimiz o‘tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallab, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi ostida dadil ildamlab borayotgani quvonarlidir. Bu Yangi O‘zbekistonni barpo etishning asosiy mezoniga aylandi, desak, ayni haqiqat.

Aytish joizki, keyingi yillarda yurtimizda tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlash, davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, inson huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlarini ta’minlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yuksaltirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har yili erishilgan yutuqlarni e’tirof etish bilan birga, qilinishi lozim bo‘lgan ishlarni sarhisob qilish yaxshi an’anaga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, qo‘lga kiritilgan natijalar o‘zimizniki. Ammo mamlakat taraqqiyoti uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar ham, mavjud muammolar ham birovniki emas, o‘zimizniki. Ularni hech kim chetdan kelib hal qilib bermaydi. Bu ayniqsa, davlat va jamiyat boshqaruvi sohasidagi muammolarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki aynan boshqaruv sohasidagi masalalar tufayli ko‘plab byurokratik to‘siqlar paydo bo‘lib, jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgani ham bor gap.

Shunday ekan O‘zbekiston fuqarosi sifatida har birimiz islohotlarni avvalo o‘z ruhiyatimiz, imkoniyatlarimiz doirasida boshlashimiz zarur. Milliy o‘zligimizni, qadriyat va an’analarimizni yana tiklashimiz, o‘zbekcha nafas olishimiz muhimdir. Shundagina Vatan deb atalmish aziz va qutlug‘ maskanimiz har bir xayrli qadamimizdan, ahd-u paymonimizdan, maqsadlarimiz bongidan tozarib, yuksalib va ravnaq topib boraveradi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Fidoyi xodim – jamiyat tayanchi



Har bir jamiyatning rivoji va barqarorligi, avvalo, o‘z kasbini sidqidildan bajaradigan, mas’uliyatni chuqur his etadigan fidoyi xodimlar faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bunday insonlar qaysi sohada ishlamasin, o‘zining halolligi, mehnatsevarligi va vatanparvarligi bilan ajralib turadi. Ular uchun xizmat – shunchaki vazifa emas, balki yuksak insoniy burchdir.







Shunday fidoyi insonlardan biri – Favqulodda vaziyatlar vazirligining shartnoma asosida harbiy xizmatchisi serjant Karimov Rustam Xudoyorovichdir. U ko‘p yillar davomida tizimda halol mehnat qilib, yuzlab insonlarning hayotini saqlab qolishga hissa qo‘shgan, kasbdoshlari hurmatini qozonishga muvaffaq bo‘lgan qutqaruvchi. Rustam Karimov 1979-yilda Toshkent viloyati Chinoz tumanida tug‘ilgan.

Qahramonimizning hayot yo‘li bir qaraganda juda oddiy, ammo yaqindan suhbatlashsangiz, mazmunan ancha boy. Bolaligidanoq atrofdagi insonlarga yordam berishni orzu qilgan Rustam Karimov maktabni tamomlagach, 1996-yilda Toshkent tijorat texnikumiga o‘qishga kirdi. Mutaxassis diplomini qo‘lga olgach, 1998-yilda Toshkent viloyati Chinoz tumani Chernishevskiy nomidagi 5-maktabga jismoniy tarbiya o’qituvchisi lavozimiga ishga qabul qilingan. Keyinchalik u bolaligidagi orzusiga erishish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida xizmat qilishni tanlaydi. Bu tanlov uning butun umri mazmunini, hayot yo‘lini belgilab berdi.

Harbiy xizmatchi serjant Karimov ko‘p yillar davomida vazirlik tizimida turli lavozimlarda xizmat qilib kelgan, xususan Toshkent shahar “050 Qutqaruv xizmati” avariya qutqaruv guruhi yo‘riqchi-qutqaruvchisi, O‘zbekiston Respublikasi FVV Tez harakat qilish Respublika ko‘p tarmoqli markazi Suvda-qutqaruv guruhi g‘avvos-qutqaruvchisi, Fuqaro muhofazasi instituti O‘quv markazi Qidiruv-qutqaruv ishlari guruhi komandiri, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti Qutqaruv ishlarini tashkil etish kafedrasi yo‘riqchi-qutqaruvchisi, Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish va kema haydovchilarni tayyorlash kafedrasi katta texnigi vazifalarida sidqidildan mehnat qildi. Bugungi kunda esa FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti Moddiy-texnik ta’minot bo‘limi boshlig‘i lavozimida xizmat qilib kelmoqda.

Xizmat faoliyati davomida, ko‘pchilik kasbdoshlari kabi, turli murakkab va xavfli vaziyatlarga duch keldi. Qor ko‘chkisi, yer silkinishi, yong‘inlar va avariyalar bilan bir qatorda 2004-yil yanvar oyida Toshkent shahar Yakkasaroy tumanida “O‘zbekiston havo yo’llari”ga qarashli YaK-40 rusumli samolyot bilan sodir bo’lgan aviahalokat, 2006-yil oktabr oyida Toshkent viloyati O‘rta chirchiq tumanida “O‘zbekiston havo yo‘llari”ga qarashli AN-2 rusumli samolyot bilan sodir bo‘lgan aviahalokatda qutqarish ishlarida faol qatnashdi.

2008-yil iyul oyida Buxoro viloyati Kogon shahridagi qurol-yarog‘ omborida sodir bo‘lgan portlashni tugatishda, 2009-yilning may oyida Toshkent viloyati Keles tumanidagi suv toshqini bilan bog’liq favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, 2009-2010-yillarda esa Samarqand viloyati Oqtosh tumanida joylashgan harbiy qismda radioaktiv moddalarni zararsizlantirish hamda 2010-yilning iyun oyida Andijon viloyatida Qirg‘iziston Respublikasidan kelgan qochoqlarga yordam berish va joylashtirish ishlarida bevosita ishtirok etgan. Bularning har biri qutqaruvchidan nafaqat jismoniy chidamlilik, balki ruhiy barqarorlikni ham talab qiladi. Serjant Karimov uchun esa har bir chaqiruv – inson hayotini saqlab qolish imkoniyati edi.

2004–2011-yillarda Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida bo‘lib o‘tgan respublika qutqaruvchilar ko‘p kurash musobaqasida muntazam ravishda birinchi o‘rinni egallab, yilning “Eng yaxshi Qidiruv-qutqaruv guruhi qutqaruvchisi”, 2006-2007-yillarda esa Qozog‘iston Respublikasida bo‘lib o‘tgan Xalqaro qutqaruvchilar o‘rtasida ko‘p kurash musobaqasida, O’zbekiston Respublikasi jamoasida ishtirok etib uchinchi o’rinni egallab, “Eng yaxshi g‘avvos-qutqaruvchisi” nominatsiyasi g‘olibligini qo‘lga kiritgan.

Ko‘p hollarda fidoyilik ortida ko‘zga ko‘rinmaydigan mashaqqatli mehnat, ko‘p yillik tajriba turadi. Tun-kun demasdan ishlash, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, odamlar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish – bularning barchasi ushbu sohada haqiqiy jonkuyar xodimning sifatlari sanaladi. Uning mehnati ko‘pincha sezilmasa-da, natijasi butun jamiyat hayotida aks etadi.

Qahramonimiz 2007-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan “Jasorat” medali, 2012-yilda Favqulodda vaziyatlar vazirining “A’lo xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan, 2015-yildan Fuqaro muhofazasi institutidagi xizmat faoliyati davomida 700 ga yaqin hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari Qidiruv-qutqaruv, suvda-qutqaruv va Radiatsion, kimyoviy biologik (bakteriologik) muhofaza qilish guruh qutqaruvchilarini maxsus va taktik-maxsus tayyorgarliklarga hozirlash va malakasini oshirishda o‘z mehnatini ayamay, bilim bergan. 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi esdalik nishoni bilan taqdirlangan. U ilm o‘rganishdan aslo to‘xtamaydi, shu bois hozirda talabalar safida tahsilni davom ettirmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi eng nufuzli o‘quv dargohlaridan sanaladigan O‘zbekiston Milliy universitetining 4-kurs talabasi. Universitetning “Agrokimyo va agrotuproqshunoslik” fakultetida sirtqi ta’lim yo‘nalishida tahsil olmoqda.

Fidoyi xodimning yana bir muhim jihati – uning yoshlarga namuna bo‘lishidir. U o‘z xulqi, intizomi va ishga chanqoqligi bilan boshqalarni ham mehnatga, sadoqatga va mas’uliyatga o‘rgatadi. Bunday insonlar atrofida sog‘lom muhit shakllanadi, jamoada hamjihatlik va taraqqiyot kuchayadi.

Bugungi kunda har bir sohada, ya’ni ta’lim, tibbiyot, qutqaruv xizmati, ishlab chiqarish yoki boshqa yo‘nalishlarda fidoyi xodimlarga ehtiyoj katta. Chunki aynan shunday insonlar orqali davlat va jamiyat oldinga siljiydi, yangi yutuqlarga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, fidoyi xodim – bu o‘z ishiga sadoqat bilan xizmat qiladigan, jamiyat ravnaqi uchun o‘z kuchini ayamaydigan inson obrazidir. Ularning mehnati esa har doim kasbdoshlari, xalqimiz vakillari tomonidan yuksak qadrlanadi. Chunki aynan shunday fidoyilar sababli hayotimiz, mamlakatimiz osudadir. Soha ham Rustam Karimov kabilar tufayli tobora taraqqiy etib boraveradi...

Agzam MIRZAYEV,
FVV Akademiyasi
kafedra dotsenti, (PhD)



Yosh qutqaruvchilar bilan yuzma-yuz muloqot

HAR QANDAY SOHADA MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASH ULARNING BILIM VA KO‘NIKMALARINI MUNTAZAM OSHIRIB BORISH MUHIM HISOBLANADI. BU YO‘LDA TAJRIBALI MUTAXASSISLAR BILAN OCHIQ MULOQOTLAR TASHKIL ETISH ORQALI YANADA SAMARALI NATIJALARGA ERISHISH MUMKIN. AYNIQSA, INSONLAR HAYOTI VA XAVFSIZLIGI BILAN CHAMBARCHAS BOG‘LIQ BO‘LGAN QUTQARUVCHILIK KASBIDA BUNDAY UCHRASHUVLAR ALOHIDA AHAMIYAT KASB ETADI.

Shu maqsadda Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, podpolkovnik Mirzohid Ostonov Koson tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limining 9- va 10-qutqaruv qismlarida xizmat olib borayotgan yosh qutqaruvchilar bilan ochiq muloqot o‘tkazdi.

Samimiy ruhda kechgan uchrashuv davomida yosh qutqaruvchilarning xizmat faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi, kasbiy mahoratini oshirish yo‘lidagi intilishlari, kelgusidagi maqsad va rejalari muhokama qilindi. Ularning fikr-mulohazalari tinglanib, xizmat jarayonida duch kelayotgan ayrim masalalar yuzasidan takliflari ham o‘rganildi.

Uchrashuvda so‘zga chiqqan podpolkovnik Mirzohid Ostonov qutqaruvchilik kasbi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki yuksak mas’uliyat, mustahkam iroda, fidoyilik hamda doimiy izlanishni talab etishini alohida ta’kidlab o‘tdi. U favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqarolar hayoti va mol-mulkini asrashdek sharafli vazifani bajarishda har bir qutqaruvchi o‘z ustida tinimsiz ishlashi, nazariy bilimlarini amaliy mashg‘ulotlar orqali muntazam mustahkamlab borishi zarurligini qayd etdi.

Shuningdek, yosh xodimlarga xizmat intizomiga qat’iy rioya qilish, jamoada hamjihatlikni mustahkamlash, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash bo‘yicha tavsiya va maslahatlar berildi.

Uchrashuv yakunida yosh qutqaruvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldilar. Ular bunday ochiq muloqotlar tajriba almashish, kasbiy o‘sish hamda xizmatga bo‘lgan mas’uliyatni yanada oshirishda muhim o‘rin tutishini alohida e’tirof etdilar.

Sohibjon VOYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, mayor

XAVFSIZLIK – maroqli hordiq garovi

BO‘STONLIQ TUMANIDA JOYLASHGAN “KIMYOGAR” BOLALAR SOG‘LOMLASHTIRISH OROMGOHIDA 300 NAFARDAN ZIYOD BOLAJONLAR YOZGI TA’TILNI MAZMUNLI O‘TKAZMOQDA.

Ularning xavfsizligini ta’minlash va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini oshirish maqsadida oromgohda “Fuqaro muhofazasi” ko‘rgazmali tadbiri tashkil etildi.

Toshkent viloyati FVB xodimlari ko‘magida o‘tkazilgan ushbu amaliy mashg‘ulotlarda bolalar o‘z bilim va mahoratlarini amalda namoyish etdilar.

Suvda va yong‘inda harakat qilish yo‘nalishida cho‘kayotgan insonga birinchi yordam ko‘rsatish va to‘satdan yuzaga kelgan yong‘inni bartaraf etish amaliyotlari bajarildi.

Shuningdek, zilzila va birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha ham ko‘nikmalar mustahkamlandi. Jumladan, kichik guruhlar zilzila vaqtida xavfsiz evakuatsiya, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish hamda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni ko‘rsatib berishdi.

Viktorina o‘yini va ko‘rgazmali chiqishlar tadbirga o‘zgacha ko‘tarinki ruh bag‘ishladi. Bolalar o‘rtasida soha bo‘yicha savol-javoblar va rasmlar tanlovi ham o‘tkazildi.

Shuningdek, FVB qutqaruvchilari mahorat darslari o‘tib, maxsus texnikalar ko‘rgazmasini tashkil etishdi. Respublika Fuqaro muhofazasi institutining mobil simulyatsion avtobusida o‘tkazilgan zilzila mashg‘uloti bolalarda katta taassurot qoldirdi.

Tadbir yakunida konsert dasturi namoyish etilib, faol ishtirok etgan bolajonlar esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Husniddin AGLAYEV,
Toshkent viloyati FVBB Chirchiq shahar HFXO‘M katta o‘qituvchisi

“Ochiq eshiklar” kuni

PAYSHANBA – YOSHLAR KUNI. SHU MUNOSABAT BILAN SAMARQAND VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASIDA YOSHLARNING KASB-HUNARGA BO‘LGAN QIZIQISHINI OSHIRISH, ULARNI FAVQULODDA VAZIYATLAR TIZIMI FAOLIYATI BILAN YAQINDAN TANISHTIRISH HAMDA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MAQSADIDA “OCHIQ ESHIKLAR” KUNI O‘TKAZILDI.

Mazkur tadbirda faol va tashabbuskor yoshlar, ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda talabalari ishtirok etib, boshqarmada yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Tadbir davomida ishtirokchilarga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimining asosiy vazifalari, qutqaruv xizmatlarining faoliyati, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Yoshlar boshqarmaning o‘quv bazasi, xizmat xonalari hamda qutqaruvchilarning kundalik faoliyati bilan tanishish asnosida ushbu sharafli va mas’uliyatli kasbning o‘ziga xos jihatlari haqida atroflicha tushunchaga ega bo‘ldilar.

Mutaxassislar tomonidan qutqaruvchilarning xizmat davomida duch keladigan vaziyatlari, favqulodda hodisalarga tezkor munosabat bildirish tartibi hamda aholi xavfsizligini ta’minlashdagi muhim vazifalari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Tadbirning doirasida ishtirokchilar Samarqand viloyati FVBning Situatsion markazi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdi. Markaz mutaxassislari tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida hududda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil etish, tezkor axborot almashinuvi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari haqida tushuntirishlar berildi. Bu esa yoshlarda favqulodda vaziyatlarni boshqarish tizimi va uning ahamiyati to‘g‘risida yanada kengroq tasavvur hosil qildi.



Shuningdek, tadbir davomida yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari tomonidan foydalanilayotgan zamonaviy texnika va maxsus jihozlar namoyish etildi. Ishtirokchilarga yong‘in-qutqaruv avtomobillari, qutqaruv ishlarida qo‘llaniladigan maxsus asbob-uskunalar, aloqa vositalari hamda himoya kiyimlari va anjomlarining imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Mutaxassislar ushbu texnika va vositalarning favqulodda vaziyatlarda insonlar hayotini saqlab qolish hamda moddiy talafotlarni kamaytirishdagi o‘rni haqida so‘z yuritdilar.

Tadbir savol-javoblar bilan davom etdi. Unda yoshlar mutaxassislardan aniq va batafsil javob olish imkoniga ega bo‘ldi. Qutqaruvchilarning kasbiy mahorati va fidokorona mehnati bilan yaqindan tanishgan navqiron avlod vakillari bunday tadbirlar ularning favqulodda vaziyatlar sohasiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularda xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga xizmat qilganini e’tirof etishdi.

Yakunda ishtirokchilar Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi faoliyati haqida boy taassurotlar bilan qaytdilar. “Ochiq eshiklar” kuni yoshlarga qutqaruvchilarning mashaqqatli, mas’uliyatli va sharafli mehnatini yaqindan ko‘rish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo‘yicha foydali bilimlarni egallash imkonini bergani bilan ahamiyatli va yodda qolarli bo‘ldi.

Sanjar MUSURMONOV,
Samarqand shahar FVB inspektori, leytenant



IMKON BERILGAN JOYDA CHEMPION TUG‘ILADI

BA’ZAN INSONNING TAQDIRI BOLALIKDA KO‘RGAN BIRGINA MANZARA BILAN YO‘NALISHINI TOPADI. KIM UCHUNDIR BU – KITOBDAGI QAHRAMON, YANA KIM UCHUNDIR SPORT MAYDONIDAGI G‘ALABA. RUSTAM TILLAYEV UCHUN ESA HARBIY LIBOSDAGI AMAKISINING SIYMOSI KELAJAK SARI BOSHLANGAN ILK QADAM BO‘LDI.





Kichik serjant Tillayev Rustam Oybekovich 1994-yil 16-fevralda Qarshi tumanida oddiy, mehnatkash oilada dunyoga kelgan. Rustam ota-onasining yolg‘iz o‘g‘li, uch opa-singilning kenjasi. Usta otaning halol mehnati, uy bekasi onaning mehr-muhabbati hukm surgan xonadonda voyaga yetdi. Undan kutilgan umidlar ham, ishonch ham boshqacha edi. Rustam esa bu ishonchni faqat so‘z bilan emas, mehnati va intilishi bilan oqlashni bolaligidanoq maqsad qildi. Futbol maydonlarida to‘p ortidan yugurgan, dalalarda chorva boqib chiniqqan bolakayning tanasi mehnat bilan, xarakteri esa sabr va matonat bilan toblandi.

Qahramonimizning favqulodda vaziyatlar tizimiga qiziqishi ham tasodif emas, harbiy libosdagi amakisini ko‘rganida undagi mas’uliyat, qat’iyat va shijoat qalbida chuqur iz qoldirgan. Amakisining goh ishga shoshilib ketishi, goh xavfli vazifalardan qaytishi, har safar yelkasida sharaf timsoli bo‘lgan harbiy unvon va ko‘rkam formaga munosib yurishi kichik Rustam uchun chinakam jasorat maktabi bo‘lgan. Ana shu havas ortidan 2015-yilda Qashqadaryo viloyati FVB tarkibidagi 40-qutqaruv qismiga instruktor-qutqaruvchi bo‘lib ishga kirdi.

– Bu tizimda xizmat faoliyatimni olib borish hayotimda kutganimdan-da ziyoda ijobiy tub burilish yasadi, – deydi qahramonimiz. – Ya’ni, men orzu qilganimdek harbiy libosni kiydim, Vatanim va xalqim xavfsizligi yo‘lida xizmat qiluvchi qutqaruvchiga aylandim. Bundan tashqari, sport yo‘liga qadam qo‘yishim va professional darajada shug‘ullanishim uchun keng yo‘l ochildi. Hech unutmayman, tizimga ishga kirish chog‘ida jismoniy sinovlarni topshirish uchun sport maydoniga olib borishgan edi. Mashg‘ulot maydonida yong‘in-qutqaruv sporti bilan shug‘ullanayotgan sportchilarning chaqqonligi, baland narvonlarga chaqmoqdek ko‘tarilishi, soniyalar bilan kurashayotgan shiddatli harakatlarini ko‘rib, ilk marotaba yong‘in-qutqaruv sporti bilan tanishganman. O‘sha lahzada u meni shunchalar o‘ziga tortdiki, o‘zimni o‘sha sportchilar safida, yong‘in-qutqaruv yo‘lagida yugurayotganimni tasavvur qilganman. Shu tariqa hayotimda xizmat va sport bir yo‘lda, bir maqsad sari hamnafas davom eta boshladi. Sportdagi ilk qadamlarim, albatta, oson kechmagan. Ko‘p yiqildim, ko‘p jarohatlar oldim, ruhiy bosimlarni boshdan kechirdim. Ammo ortga chekinishni xayolimga ham keltirmadim. Ota-onam yaratib bergan sharoitni oqlash, murabbiylarim – Abbos Sharipov va Rahim Ro‘ziyevning menga bildirgan ishonchini qadrlash meni doim oldinga undardi. “Tezroq o‘rganishim, ularga munosib bo‘lishim kerak”, degan fikr meni tinch qo‘ymasdi. Shu sabab mashg‘ulot tugagach ham dam olishni emas, o‘z ustimda ishlashni tanlardim. Har bir bo‘sh vaqtimni mashq qilish, kamchiliklarimni bartaraf etish va mahoratimni oshirishga bag‘ishladim. Natijada 2018-yilda yong‘in-qutqaruv sporti bo‘yicha viloyat terma jamoasi safiga qo‘shildim, 2022-yildan O‘zbekiston terma jamoasi safida respublika miqyosidagi musobaqalarda ishtirok etishni boshlaganman.

Har bir sportchining xotirasida umr bo‘yi o‘chmaydigan bir musobaqa bo‘ladi. Rustam uchun ham ana shunday manzil – Istanbul. Respublika miqyosidagi musobaqalarda ketma-ket qo‘lga kiritilgan chempionliklar uning imkoniyatlarini namoyon qilgan bo‘lsa, 2023-yil bu imkoniyatlarning haqiqiy natijasi yuzaga chiqdi.

– Turkiyaning Istanbul shahrida o‘tgan yong‘in-qutqaruv sporti bo‘yicha erkaklar o‘rtasidagi IX Jahon chempionati hayotimdagi eng yorqin sahifa bo‘lib qolgan. Unda O‘zbekiston terma jamoasi ishg‘ol qilish narvonida o‘quv minorasini 4-qavatiga ko‘tarilish bo‘yicha 3-o‘rinni, 100 metrga to‘siqlar osha yugurish bo‘yicha 3-o‘rinni, yong‘in o‘chirish estafetasi bo‘yicha 1-o‘rinni va jangovar yoyilish turida 3-o‘rinni qo‘lga kiritib, yakuniy natijalarda umumjamoalar o‘rtasida 1-o‘rinni egallab, shohsupaning eng yuqorisida turib, oltin medallarni qabul qilish nasib etgan edi. Biz nafaqat musobaqada ilk bor mutlaq chempion bo‘lishga erishdik, balki tarix yozdik. Medallar vaqt o‘tishi bilan javonga qo‘yiladi, biroq Vatan bayrog‘ini dunyo nigohi qarshisida baland ko‘tarilganini ko‘rish hissi umr bo‘yi qalbda qoladi. Men uchun haqiqiy g‘alaba aynan shu, – deydi Rustam.

Ko‘pchilik g‘alabaning siri kuchli mashg‘ulot, to‘g‘ri ovqatlanish yoki jismoniy tayyorgarlikda, deb o‘ylaydi. Rustam esa har qanday musobaqa undan ancha oldin – insonning o‘z qalbida boshlanishiga ishonadi.

– Har safar start chizig‘iga chiqishimdan oldin eng avvalida, o‘zimni bu sinovdan o‘ta olishimga ishontiraman. Agar sportchining o‘zi o‘ziga ishonmasa, unga murabbiy ham, muxlis ham, yaqinlari ham ishonch bera olmaydi. G‘alabaning birinchi qadami insonning ichida qo‘yiladi. Men uchun eng mustahkam tayanch – ichki ishonch. Qolgan natijalar esa ana shu poydevor ustiga quriladi, – deydi u.

Ehtimol, Rustamning eng katta ustunligi ham shundadir. U raqibini avval maydonda emas, shubhalarini yenggan onida ortda qoldiradi. Shuningdek, u muvaffaqiyatni omad yoki tasodif bilan izohlamaydi. Uning nazarida g‘alabaning o‘z formulasi bor. Yillar davomida orttirgan tajribasi unga sportchini cho‘qqiga olib chiqadigan uchta ustunni aniq ko‘rsatib bergan.


– Birinchidan, sportchining hayotida tartib va intizom bo‘lishi shart. Intizom bo‘lmagan joyda natija ham uzoqqa bormaydi. Ikkinchidan, inson avvalo, o‘z kuchiga ishonishi kerak. O‘ziga ishonmagan sportchi hal qiluvchi pallada ikkilanadi. Uchinchidan esa, murabbiyning har bir tavsiyasi o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi lozim. Chunki sportchi ko‘rmaydigan jihatlarni murabbiy ko‘radi. Men erishgan yutuqlarning ortida ham aynan shu uch tamoyil turadi, – deydi qahramonimiz.

Rustam Tillayevning faoliyati – bir sportchining navbatdagi muvaffaqiyat hikoyasigina emas, bu chekka qishloqda ulg‘aygan, katta orzular bilan yashagan yigitning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga yaratilgan ishonch va sharoitni ham ifodalab beradi. Har bir medal ortida murabbiy mehnati, oilaning duosi va sportchining matonati turadi. Ammo bunday yutuqlarning qanot yozishi uchun ularga ishonadigan, imkoniyat yaratadigan va qo‘llab-quvvatlaydigan muhit ham zarur. Favqulodda vaziyatlar vazirligi ana shunday muhitni shakllantira olgani bilan ahamiyatlidir.

Bugun FVV safida Rustam kabi yurt sha’nini xalqaro maydonlarda munosib himoya qilayotgan yoshlar kam emas. Ular bir qo‘lida qutqaruvchining mas’uliyatini, ikkinchi qo‘lida esa sportchining g‘ururini ko‘tarib yurishibdi. Bu esa tizim faqat favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolish bilan cheklanib qolmasligi, balki, inson hayotini bunyod etishiga ham hissa qo‘shishini ifodalaydi. Bu yerda orzular qo‘llab-quvvatlanadi, iste’dodlar kashf etiladi, oddiy yigitlar o‘z mehnati bilan Vatan bayrog‘ini jahon shohsupalarida hilpiratadigan chempionlarga aylanadi.

Sabohat UZOQOVA,
jurnalist

“LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O‘ZBEK ALIFBOSINI JORIY ETISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUNGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH HAQIDAGI QONUN LOYIHASI JAMOATCHILIK MUHOKAMASIGA HAVOLA ETILDI. LOYIHA BILAN TANISHIB CHIQQAN KO‘PLAB YURTDOSHLARIMIZ O‘Z FIKR-MULOHAZALARINI BILDIRMOQDALAR.





ALIFBODAGI O‘ZGARISHLARNI YOQLAYSIZMI?

Ularning aksariyati o‘ttiz yildan beri “Davlat tili haqida” hamda yangi alifboni joriy etish to‘g‘risidagi qonunlarni amalga to‘liq tatbiq eta olmayotganligimizning asosiy sababi yangi alifbomizning nomukammalligidandir, deya fikr bildirishmoqda. Mazkur qonunlar ijrosini to‘liq ta'minlash uchun, avvalo, davlat tilini o‘rganish, o‘rgatish, o‘qitish, hujjatlarni tom ma'nodagi savodxonlik bilan yuritish uchun mukammal, yagona o‘zbek alifbosini yaratish va amalga joriy etish lozimligini ham ta'kidlayotganlar ham bor.

Filologiya fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev alifbo bilan bog‘liq islohotlar boshlangan ilk paytlardayoq loyiha mualliflari o‘zbeklarning ham turkiy ekanini unutmasliklari kerakligini bot-bot ta'kidlaydi. Va yana barcha turkiy xalqlar singari o‘zbek tilida ham kamida to‘qqiz unli mavjudligi, lekin qachonlardir bobolar yo‘l qo‘ygan xato qonunlashtirilib, o‘zbek unlilari soni oltita bo‘lib qolganiga urg‘u beradi. Maqolalaridan birida millatimizning nomi bo‘lmish “o‘zbek” degan so‘zdagi birinchi tovushga alohida belgi berish mantiqiy zaruriyat va vijdoniy burch ekanligini aytib o‘tgan.

Darhaqiqat, bir paytlar yo‘l qo‘yilgan har qanday xato qachondir tuzatilishi zarur. Qozoqboy Yo‘ldoshev ta'riflaganidek, o‘ychil millat xatolarning bir qismini emas, hammasini tuzatishni ko‘zda tutadi. Demak, milliy alifbo takomillashtirilayotgan ekan, bir zamonlar yo‘l qo‘yilgan barcha xatoliklarni tuzatib, ham tilimiz tabiatiga, ham qardoshlarga yaqinlashish chorasi ko‘rilishi g‘oyat kuyunchak zamondoshlarimiz ko‘nglidagi ezgu ishdir.

– “X” va “H” harflari xuddi turklardagi singari bitta qilib qo‘ya qolinsa, nima yo‘qotiladi? – deydi Qozoqboy Yo‘ldoshev. – Axir, baribir, o‘zbek bu tovushlarni farqlamay ishlatadi-ku?! “H” tovushining aytilishiga o‘zbekda na jismoniy va na artikulyatsion asos bo‘lgani holda odamlarni qiynab, yozuvda xatoni ko‘paytirish kimga, nima uchun kerak? Mana “ц” tovushi chiqib ketdi. Ayrimlar vahima qilganday, osmon uzilib, yerga tushmadi-ku? Harflarni tanlashdagi o‘ziga xoslik va o‘ziga mosligimiz kamlik qilganday, mavjud harflarga tovush tayin etishda ham boshqa turkiy alifbolardan uzoqlashiladigan yo‘l tutilgan. Chunonchi, butun turk dunyosida “O” harfi bizdagi “O‘” tovushini bildiradi. Bizning alifbodagina bu harfga o‘zgacha fonetik yuk ortilgan. Shu sabab bu masala ham o‘ziga xos mulohaza va muhokamalarni talab qiladi. Har qanday islohot kabi alifboni isloh qilish ham shunchaki islohot uchun emas, balki qulaylik va takomillashtirish uchun qilinishi kerak. Ayrimlar jamiyatda shuncha muammo turganda, alifboni takomillashtirish shartmi, boridan foydalanilaversin-da, deyishmoqda. Barcha muammolar aynan o‘zligimizni tanish va tanitishga xizmat qiladigan milliy belgilarga befarqligimiz, loqaydligimiz tufayli sodir bo‘ladi.

Lotincha			Kirill	Lotincha			Kirill
Bosma	Yozmasi	Talaffuzi	Harflar	Bosma	Yozmasi	Talaffuzi	Harflar
Aa	*Aa*	*a*	Аа	Oo	*Oo*	*o*	Оо
Bb	*Bb*	*be*	Бб	Pp	*Pp*	*pe*	Пп
Dd	*Dd*	*de*	Дд	Qq	*Qq*	*qe*	Кк
Ee	*Ee*	*e*	Ээ	Rr	*Rr*	*re*	Рр
Ff	*Ff*	*fe*	Фф	Ss	*Ss*	*se*	Сс
Gg	*Gg*	*ge*	Гг	Şş	*Şş*	*şe*	Шш
Ğğ	*Ğğ*	*ğe*	Ғғ	Çç	*Çç*	*çe*	Чч
Hh	*Hh*	*he*	Хх	Tt	*Tt*	*te*	Тт
Ii	*Ii*	*i*	Ии	Uu	*Uu*	*u*	Уу
Jj	*Jj*	*je*	Жж	Vv	*Vv*	*ve*	Вв
Kk	*Kk*	*ke*	Кк	Xx	*Xx*	*xe*	Хх
Ll	*Ll*	*le*	Лл	Yy	*Yy*	*ye*	Йй
Mm	*Mm*	*me*	Мм	Zz	*Zz*	*ze*	Зз
Nn	*Nn*	*ne*	Нн	ng	*ng*	*nge*	нг
Oo	*Oo*	*o*	Оо	'	'	*Tutuq b.*	ъ

Samarqand davlat universiteti dosenti Mardon Boltayevning ayni mavzudagi mulohazalari ham diqqatimizni tortdi:

– Men ham to‘rt yil avval tilshunos-mutaxassis sifatida alifbomizni isloh qilish ustida faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi guruh e'tiboriga o‘z takliflarimni taqdim etgan edim. Qonun loyihasi muhokama uchun e'lon qilinganligi munosabati bilan yana bir bor ushbu loyihaga tayangan holda o‘z fikr-mulohazalarim – takliflarimni o‘rtaga tashlamoqchiman. Agar “Ng ng” harflar birikmasi o‘rniga alohida bitta shaklli harf olinmaydigan bo‘lsa, bu harflar birikmasini ham alifbo sirasidan chiqarish kerak. Nega? Chunki, yangi alifbomizga mustaqil undosh tovush ifodalovchi “Nn” va “Gg” harflari bilan bir qatorda, o‘zbek tilining o‘ziga xos burun tovushini ifodalovchi “Ng” “ng” harflar birikmasining ham “adashib” kirib qolganligi tilimizni o‘rganuvchilarni ham, maktab o‘quvchilarini ham chalg‘itib kelyapti. Yozuvda so‘zlar tarkibidagi ng harflar birikmasini har ikkalasi mustaqil holda, alohida [n] va [g] undosh tovushlarini ifodalovchi “ŋ” va “g” harflaridan farqlashning hech ham imkoni yo‘q. Chunki ular shakl jihatidan bir xildir. Masalan, quyidagi so‘zlarda ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan ng harflar birikmasi bilan yoziladigan burun tovushli so‘zlarni alohida “n” va “g” tovushni ifodalovchi harflar bilan yoziladigan so‘zlardan talaffuz etish orqali ularni bir-biridan farqlashning hech ham iloji yo‘q. Marhamat, ularni yozuvda farqlab ko‘ring: tanga (mayda, chaqa pul) – tanga (tanaga, gavdaga), ko‘ŋgil (yurak, qalb) – ko‘ŋgil (rozi bo‘l), tongin (tong paytini) – tongin (inkor et), singil (qiz qarindosh) – singil (sinish), to‘ŋgimoq (sovqotmoq, muzlamoq) – tungi (tun paytidagi), o‘ŋgimoq (rangi o‘chmoq, eskirmoq) – o‘ŋga (o‘ŋ soniga) – o‘ngga (o‘ng tarafga), engil (ust-bosh) – engil (pastga tush) va hokazo. Xo‘sh, bu so‘zlarning qaysi biri ŋ burun tovushini ifodalovchi harflar birikmasi bilan, qaysilari “n” va “g” mustaqil harflari bilan yozilgan?! Vaholanki, tilimizda bunday so‘zlar juda-juda ko‘p. Ular yozuvda ŋ burun tovushini ifodalovchi harflar birikmasi hamda “n” va “g” mustaqil harflari bilan bir xil shakllarda beriladiki, bunday so‘zlarning qaysi birida “ŋg” harflar birikmasi, qaysi birida esa har biri mustaqil undosh tovushni ifodalovchi alohida harf ekanligini farqlab bo‘lmaydi. Ular yozuvda shakl jihatidan farqlanmasa, talaffuzda qanday farqlash mumkin? Ammo bu tovushlar nutqimizda yaqqol farqlanadi, so‘zga boshqa ma'no, jarang va jilo beradi, so‘zlovchi va tinglovchi talaffuzdagi ana shu farqlilikka qarab ularni o‘z o‘rnida qo‘llayveradi. Afsuski, buni farqlay olmaydigan o‘quvchilar, talabalargina emas, ayrim teleradio boshlovchilari, suxandon va jurnalistlar ham [ŋg] burun tovushini alohida [n] va [g] undosh tovushlari kabi qo‘pol urg‘u bilan *akangiz, maqsadin-giz, istagin-giz* va hokazo tarzda noto‘g‘ri talaffuz etib kelishmoqda. Bu so‘zlar *aka-ngiz, maqsadi-ngiz, istagi-ngiz, bola-chaqa-ngiz, ko‘ngli-ngiz* tarzida muloyim, ohangdor talaffuz etilishi lozim. Agar yangi alifbomizda [ŋg] burun tovushini ifodalovchi alohida Ŋŋ harfi olinsa, bu muammo o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘lar edi. Alifbo tilimizga baynalmilal so‘zlar tarkibida o‘zlashgan [s] undosh tovushini ifodalovchi “Cc” belgisi ham kiritilsa, ma'qul bo‘lar edi. “Cc” harfini alifbomizga kiritish bilan biz, birinchidan, tilimizga taraqqiy etgan dunyo tillaridan o‘zlashgan shunday tovushli yuzlab so‘zlarni yozishda va talaffuz etishda bir xillikka erishar edik.

Shoira, tarjimon va taniqli noshir Dilorom Ergasheva bilan tez-tez suhbatlashib turamiz. Opa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga ham ko‘pincha turk alifbosida yozadi. Yangi alifbodagi o‘zgarishlar borasida fikr so‘raganimizda shoira shunday javob berdi:

– 2014-yillarda turk tilini astoydil o‘rgana boshlagandim. Shoshib qolgandim. Yosh o‘tganida bir tilga muhabbat qo‘yish boshqacha bo‘larkan. Rus tilida juda ravon, tojik va ingliz tillarida ozroq gaplasha olaman. Nahot endi shuncha ishtiyoq bilan yangi til o‘rganaman, degan orziqish bor edi ichimda. Xullas, o‘shandan boshlab turk tilida xatlar yoza boshladim yaqinlarimga. Sekin-sekin ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlarimda ham buni qo‘llash juda yoqa boshladi. Shogirdlarim ham til sertifikatini olib shu tilda yozishga harakat qila boshlashdi. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga havola etilgach, kiritilgan o‘zgarishlarni ko‘rganimizdan keyin shogirdlarim bilan qanday quvonganimizni ko‘rsangiz edi. Juda katta mamnuniyat va xayrixohlik bilan qabul qildik. Yurtdoshlarimga tavsiya qilaman. Ancha yengil bu usulda yozish va o‘qish. Yangilikdan qochish, qo‘rqish tanbal odamlarning ishi deb o‘ylayman. Qardosh o‘lkalar adabiyotini o‘z yozuvi va tilida o‘qishdek jarayon ham boshlanib ketdi...

Mulohazalarni o‘rganayotib, “Boburnoma”day ulkan hajmli tarixiy-badiiy asarni yaratib, turkiy nasr imkoniyatlarining beqiyos ekanini amalda isbotlagan bobomiz yaratgan “Boburiy xati” yodimizga tushdi. 1504-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur arab alifbosi asosida, ammo shaklan yangi, muhimi, o‘zining ona tili tovushlari tizimiga mos alifbo yaratishni maqsad qilib “Boburiy xati” (“Xatti Boburiy”)ni kashf qildi. Ushbu yangi alifbo 29 harfdan iborat bo‘lgan. Bobur Xurosonga tashrif buyurganida hirotlik mashhur ulamolardan Qozi Ixtiyor va Muhammad Miryusuf undan boburiy xatni o‘rgangan. Bobur Hindistonni fath etganidan so‘ng, Qandahorda turgan Komron va Badaxshonda turgan Hindolga boburiy xatda maktublar jo‘natgan. E'tiborli jihati, Bobur Mirzo ham ona tilimiz tovushlariga mos mukammal yangi alifbo yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Chindan ham, agar biz yangi alifbomizni takomillashtirish muammosi mohiyatini to‘g‘ri tushunib, ortiqcha ehtirosli bahslarga berilmasdan, yozuvimiz va imlomizni – alifbomiz va imlo qoidalarimizni mukammallashtirib, ulardagi kamchiliklarini bartaraf eta olsak, tilimiz taraqqiyotiga katta yo‘l ochamiz. Shuning bilan birga yosh avlodning, butun xalqimizning savodxon bo‘lishiga, tilimizni o‘rganayotgan boshqa millat va elat vakillariga katta yengillik yaratishga erishamiz. Alifbomizni mukammal holga keltirmas ekanmiz, uning yangi imlo qoidalarini takomillashtirish, “Davlat tili haqida”gi hamda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunlarning ijrosini to‘liq ta'minlashga erishish bo‘yicha bahs-u munozaralarning aslo keragi yo‘qdir.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

BOLALARGA QUVONCH ULASHGAN "FAVVORA SHOUSI"



FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI, TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMANI HOKIMIYATI HAMDA TUMAN FVB HARBIY XIZMATCHILARI BILAN HAMKORLIKDA "DOLZARB 60 KUN" PROFILAKTIK TADBIRLARI MUNTAZAM TASHKIL ETILMOQDA. AYNIQSA, TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMANI AHOLISI VA BOLALAR ISHTIROKIDA MAXSUS YONG'IN-QUTQARUV AVTOMOBILI YORDAMIDA O'TKAZILGAN "FAVVORALAR SHOUSI" BOLALARGA UNUTILMAS LAHZALARNI TUHFA ETDI.

Jazirama yoz kunlarida suv favvorasi ostida tashkil etilgan qiziqarli va ko'tarinki ruhdagi dastur bolalarning quvonchiga quvonch qo'shib, ularning yozgi ta'tilini yanada mazmunli va esda qolarli o'tishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, mahalla aholisi, ota-onalar va bolalar o'rtasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya etish, zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish tartibi borasida ham targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, jazirama issiq sharoitida ehtiyot choralarini ko'rish, taqiqlangan va nazoratsiz suv havzalarida cho'milmaslik hamda suvda xavfsizlik qoidalariga amal qilish yuzasidan keng qamrovli profilaktik tushuntirishlar ham yo'lga qo'yilgan.

Mutaxassislar tomonidan ishtirokchilarga amaliy tavsiyalar berilib, ularni qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar qaytarildi. Tadbir davomida xavfsizlik qoidalariga rioya etishning inson hayoti va salomatligini asrashdagi muhim ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan bunday tadbirlar xalqimizni kayfiyatini ko'tarish bilan bir qatorda ularning xavfsizlik madaniyatini oshirishga xizmat qilayotir.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi
Axborot xizmati
boshlig'i, mayor

E'TIBORSIZ BO'LMANG!

BOLALAR ODATDA HAMMA NARSANI SINAB KO'RISHNI XUSH KO'RADILAR. AYNIQSA, OLOV ULARNI JUDA QIZIQTIRADI. AGARDA BOSHIDAN OLOVNING XAVF-XATARI VA OQIBATLARI HAQIDA MA'LUMOTLAR BERILMASA, KO'NGILSIZ HOLATLAR YUZ BERISHI ANIQ.



Aslida olov insonga do'stdir, lekin nazoratdan chiqsa, u tufayli falokatlar yuz beradi. avvalo, olovning kelib chiqishiga kislorod, yonuvchan modda va yondiruvchi manbalar sabab bo'ladi. Odatda yong'in chiqishi insonlarning ehtiyotsizliklari, yong'in xavfsizligi qoida talablariga rioya qilmasliklari, shu jumladan, bolalarning sho'xligi, elektr simlarning nosozligi va ularning noto'g'ri ulanishidan, chaqmoq oqibatida va boshqa sabablardan sodir bo'ladi. Eng achinarlisi, ushbu hodisalarda yosh bolalarning o'zlari yong'in vaqtida tan jarohati olishi yoki uning qurboni bo'lishidir.

Sodir bo'layotgan yong'inlarning kelib chiqishiga asosiy sabablarning biri kattalarning farzandariga bo'lgan e'tiborsizliklari yoki farzandlarimizning ayrim qoida talablarning o'zlashtirmaganliklaridandir. Har bir yong'in insonlarni hayotiga, ularning yaqinlariga xavf solishi va ko'p mashaqqatlar evaziga bunyod etilgan uy-joylarini, yillab yig'ib to'plagan mol-u mulklarini bir zumda yonib ketishiga olib kelishi mumkin.

Azir hamyurtlar! Bolalar sho'xligi va ularni nazoratsiz qoldirilishi oqibatida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish maqsadida yong'in xavfsizligi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishingizni hamda farzandlaringizga o'rgatishingizni so'rab qolamiz. Ushbu qoidalarga rioya etish bilan Siz o'zingiz va farzandlaringizni hamda uy-joyingizni yong'indan asrab qolgan bo'lasiz.

Behzod G'AFUROV,
"NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK OFV markazi
Profilaklika bo'yicha targ'ibot va tashviqot
guruhi boshlig'i, mayor

RESPUBLIKAMIZDA YOZ MAVSUMIDA YONG'INLARNING OLDINI OLISH, AHOLI HAMDA HUDUDLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH, MUHIM VA STRATEGIK, IJTIMOIY SOHA OBYEKTLARIDA YONG'IN XAVFSIZLIGI TALABLARIGA RIOYA ETILISHI USTIDAN NAZORATNI KUCHAYTIRISH MAQSADIDA O'TKAZILAYOTGAN "DOLZARB 60 KUN" PROFILAKTIK TADBIRLARI DOIRASIDA BESHARIQ TUMANI HOKIMI HAMDA TUMAN FAVQULODDA VAZIYATLAR BO'LIMI BOSHLIG'I TOMONIDAN TUMAN GAZ TA'MINOTI BO'LIMI FAOLIYATI ATROFLICHA O'RGANILDI.

GAZ ZAXIRASI VA TA'MINOTI

O'rganishlar davomida gaz ta'minoti korxonasida aholini tabiiy va suyultirilgan gaz bilan uzluksiz ta'minlash, suyultirilgan gaz ballonlarini belgilangan muddatlarda iste'molchilarga yetkazib berish, xizmat ko'rsatish sifati, murojaatlar bilan ishlash tizimi hamda korxonada xavfsizlik talablariga rioya etilishi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilindi.

Shuningdek, gaz ta'minoti obyektida yong'in xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariya holatlarida tezkor harakat qilish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, xodimlarning shayligi, yong'inga qarshi birlamchi o't o'chirish vositalarining sozligi, suv ta'minoti, elektr jihozlari hamda gaz uskunalarining texnik holati batafsil ko'zdan kechirildi.

Bundan tashqari, suyultirilgan gaz saqlanadigan ombor hududi o'rganilib, gaz ballonlarini saqlash va tashish qoidalariga rioya etilishi, omborning yong'inga qarshi himoya tizimi, gaz zaxirasining yetarliligi, favqulodda vaziyatlarda harakatlanish rejalarining amaldagi holati baholandi.

Aniqlangan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish, profilaktik nazoratni yanada kuchaytirish hamda xodimlarning yong'in xavfsizligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish, aholi o'rtasida suyultirilgan gazdan foydalanishda xavfsizlik madaniyatini yanada oshirish, doimiy ravishda fuqarolar bilan profilaktik tushuntirish, targ'ibot tadbirlarini o'tkazib borish yuzasidan mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi. Xalq tinchligi, fuqarolar xavfsizligi uchun barcha birdek mas'ulligi ta'kidlandi.

S.YO'LDOSHEV,
Beshariq tumani FVB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik



Yoz taftidan xavfsiz saqlaning

YOZNING JAZIRAMA KUNLARI KELISHI BILAN NEFT MAHSULOTLARINING QIZISHI NATIJASIDA O‘Z-O‘ZIDAN ALANGALANISHI, YONG‘INLAR BILAN BOG‘LIQ AVARIYALAR KUZATILISHI HAMDA SIG‘IMLARDAGI YOQILG‘I-MOY MAHSULOTLARINING TO‘KILIB YONISHI KABI HOLATLARNING RO‘Y BERISHI EHTIMOLI ORTADI. ANA SHUNDAY EHTIMOLIY XAVFLARNI INOBATGA OLGAN HOLDA JOYLARDA QATOR PROFILAKTIK VA AMALIY-KO‘RGAZMALI TADBIRLAR O‘TKAZIB KELINMOQDA.

Jumladan, “O‘zmetkombinat” AJ obyektlarida Favqulodda vaziyatlar bo‘limi tasarrufidagi qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi bilan birgalikda Yoqilg‘i quyish shoxobchasida o‘quv-taktik mashg‘uloti o‘tkazildi.

Mashg‘ulot davomida shartli ravishda yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlar va ularning xavfini prognozlash, shartli yong‘inni bartaraf etish, jabrlanganlarni evakuatsiya qilish hamda kuch va vositalarning o‘zaro hamkorligini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi.

Tadbirda shaxsiy tarkibning jangovar shayligi, texnika va maxsus jihozlardan samarali foydalanish ko‘nikmalari sinovdan o‘tkazilib, belgilangan vazifalar to‘liq va sifatli bajarildi.

Bu kabi o‘quv-taktik mashg‘ulotlar favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish, tegishli xizmatlar bilan hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda qutqaruvchilarning kasbiy mahoratini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adham HAMDAMOV,
“O‘zmetkombinat” AJ OFVB FVP va NB boshlig‘i, podpolkovnik

AMALIY TAJRIBALAR MUSTAHKAMLANDI

NAMANGAN VILOYATI POP IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT O‘RMON XO‘JALIGIGA QARASHLI DALA MAYDONLARI VA BUTAZORLARDA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO‘LGAN YONG‘INLARNI BARTARAF ETISH HAMDA QUTQARUV ISHLARINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA MAXSUS-TAKTIK O‘QUV MASHQI O‘TKAZILDI.



Mazkur o‘quv mashqi Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tashabbusi bilan Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish davlat (FVDT) tizimiga kiruvchi tezkor xizmatlar hamkorligida tashkil etildi.

Mashqda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasidan 7 ta maxsus texnika va 42 nafar shaxsiy tarkib, FVDT xizmatlaridan 7 ta texnika va 22 nafar xodim, hududga yaqin aholi orasidan tuzilgan 50 nafardan ortiq mahalla volontyorlari ishtirok etdi.

O‘quv mashqi davomida shartli ravishda yuzaga kelgan yong‘inni bartaraf etish, o‘rmon xo‘jaligi xodimlarining birlamchi yong‘in o‘chirish vositalaridan foydalanish ko‘nikmalari, Favqulodda vaziyatlar bo‘linmalarining tezkor harakatlari, yong‘in tarqalishini cheklash hamda kuch va vositalarni samarali boshqarish bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi.

Shuningdek, qutqaruv xizmatlari va hamkor tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligi yana bir bor sinovdan o‘tkazildi. O‘rmon hududlarida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni bartaraf etish, qutqaruv ishlarini olib borish, ishchi-xizmatchilarning favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishi hamda yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishi bo‘yicha amaliy tajribasi mustahkamlandi.

Nozim RAHMONOV,
Pop tumani FVB boshlig‘i, mayor

O‘ZARO HAMKORLIKNI *rivojlantirish yo‘lida...*

“QAMCHIQ” DOVONIDA FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI OLISH VA BARTARAF ETISH DAVLAT TIZIMI (FVDT) BOSHQARUV ORGANLARI HAMDA KUCH VA VOSITALARINING O‘ZARO HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH MAQSADIDA MAXSUS-TAKTIK O‘QUV MASHQLARI O‘TKAZILDI.



Mashg‘ulotlar Respublika idoralararo shtabda o‘tkazilgan yig‘ilish bilan boshlandi. Unda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirlik va idoralar hamda hamkor tashkilotlar rahbarlari va mas’ul xodimlari ishtirok etdi. Yig‘ilishda “Qamchiq” dovonida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari, yong‘inlar, tosh va qor ko‘chkilari kabi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi.

O‘quv mashqlari davomida “Qamchiq” Maxsus qutqaruv boshqarmasi tomonidan dovon hududidagi to‘rtta nuqtada turli shartli favqulodda vaziyatlar bo‘yicha amaliy harakatlar bajarildi:

Jumladan, “Qamchiq” tunnelida yoqilg‘i tashuvchi yuk avtomashinasida yuzaga kelgan yong‘inni bartaraf etish, tunnelda harakat xavfsizligini ta’minlash hamda jabrlanganlarni qutqarish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, A-373 avtomobil yo‘lining 121,8-kilometrida tosh ko‘chkisi oqibatida sodir bo‘lgan avtohalokat hamda shu yo‘lning 100-kilometrida bir nechta transport vositalari ishtirokidagi yo‘l-transport hodisasi oqibatlarini bartaraf etish ishlari amalga oshirildi.

Qolaversa, “Angren–Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘lining “Orzu” vokzali hududida yuk poyezdi relsdan chiqib ketishi va yong‘in sodir bo‘lishi bilan bog‘liq shartli vaziyatlar bo‘yicha qidiruv-qutqaruv, avariya-qutqaruv, yong‘inni o‘chirish, jabrlanganlarni evakuatsiya qilish, elektr ta’minotini tiklash va harakat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy mashqlar bajarildi.

Mashg‘ulotlarda Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Mudofaa vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “Qamchiqavtoyo‘l” IYFK, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati hamda boshqa hamkor tashkilotlarning kuch va vositalari faol qatnashdi.

O‘quv mashqlari yakunida barcha bosqichlarda hamkorlikdagi xizmatlarning harakatlari tahlil qilinib, mavjud muammo va kamchiliklar muhokama etildi. Mutasaddilar tomonidan favqulodda vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish, idoralararo hamkorlikni yanada takomillashtirish hamda qutqaruv kuch va vositalarining shayligini oshirish yuzasidan tegishli tavsiya va topshiriqlar berildi.

Bekzod ANORQULOV,
“Qamchiq” Maxsus qutqaruv boshqarmasining Qutqaruv otryadi komandiri, mayor

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA ZAMONAVIY YECHIMLAR

NAVOIY VILOYATI FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH, XIZMAT FAOLIYATIDA OCHIQLIK, SHAFFOFLIK VA QONUNIYLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA TIZIMLI ISHLAR AMALGA OSHIRILMOQDA. BUNDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, XODIMLARNING HUQUQIY BILIMLARINI OSHIRISH HAMDA FUQAROLAR BILAN OCHIQ MULOQOTNI KUCHAYTIRISHGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILAYOTGANI QUVONARLIDIR.



Xususan, xizmat jarayonlarini raqamlashtirish, hujjatlar ijrosini elektron nazorat qilish, topshiriqlarning bajarilish muddatlarini kuzatib borish hamda tekshiruv va profilaktik tadbirlarni aniq mezonlar asosida tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yondashuv inson omilini kamaytirish, xodimlarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish va turli korrupsiyaviy xavflarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Boshqarma tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda fuqarolar va tizim xodimlarining e’tiborini tortuvchi, qisqa va ta’sirchan videoroliklar muntazam ishlab chiqilmoqda. Ushbu videomateriallarda korrupsiyaning salbiy oqibatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, xizmat vakolatidan noqonuniy foydalanish hamda bunday holatlarning huquqiy javobgarligi sodda va tushunarli shaklda yoritilmoqda. Tayyorlangan materiallar ijtimoiy tarmoqlar, o‘quv mashg‘ulotlari va turli targ‘ibot tadbirlarida namoyish etilmoqda.



Shuningdek, viloyat hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari, korxona va tashkilotlar vakillari bilan muntazam uchrashuvlar hamda davra suhbatlari o‘tkazilmoqda. Uchrashuvlar davomida korrupsiyaviy holatlarga duch kelganda murojaat qilish tartibi, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari, shuningdek, Favqulodda vaziyatlar vazirligining ishonch telefonlari haqida batafsil ma’lumotlar berilmoqda.

Xodimlar va ularning oila a’zolari ishtirokida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ochiq muloqotlar, uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etilib, halollik, poklik, vatanparvarlik, qonunlarga hurmat hamda xizmat burchiga sadoqat kabi qadriyatlar keng targ‘ib qilinmoqda. Bunday tadbirlar oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlash, xodimlarni turli salbiy ta’sirlardan asrash va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda yordam beradi.

Amalga oshirilayotgan mazkur chora-tadbirlar Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash, korrupsiyaviy xavflarni kamaytirish, fuqarolar ishonchini mustahkamlash hamda har bir xodimning xizmat vazifalarini halol va mas’uliyat bilan bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Mansur UMIRZOQOV,
Navoiy viloyati FVB bo‘lim boshlig‘i, mayor

JAMIYAT TANASIDAGI SARATON

FVV MARKAZIY APPARATI MAS’UL XODIMLARI TOMONIDAN HUDUDLARDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH BO‘YICHA KENG QAMROVLI PROFILAKTIK TADBIRLAR TASHKIL ETILDI. UNDA FVV HAMDA BOSHQA TEGISHLI TASHKILOTLAR MAS’ULLARI, HARBIY XIZMATCHILAR HAMDA ULARNING OILA A’ZOLARI ISHTIROK ETDI.



Tadbirda mas’ullar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, axborot xavfsizligini ta’minlash, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, diniy ekstremizm va radikal g‘oyalarning salbiy oqibatlari, shuningdek, onlayn qimor o‘yinlarining jamiyat va shaxs hayotiga zararli ta’siri haqida batafsil ma’lumotlar yetkazildi.

Ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga mutasaddi tashkilotlar vakillari tomonidan batafsil javoblar berildi hamda huquqiy madaniyatni oshirish, xizmat va kundalik hayotda qonuniylikka qat’iy rioya etish muhimligi alohida ta’kidlandi.



Yakunda mavzuga oid “Nadomat” nomli video film namoyish etilib, unda keltirilgan real hayotiy misollar orqali korrupsiya oqibatlari va unga qarshi kurashning ahamiyati yana bir bor yoritib berildi.

FVV Axborot xizmati

BUGUNGI KUNDA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATIDA OCHIQLIK, SHAFFOFLIK VA QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASH USTUVOR VAZIFALARDAN BIRI HISOBLANADI. AYNIQSA, KORRUPSIYANING OLDINI OLISH, MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI BARTARAF ETISH HAMDA HAR BIR XODIMDA HALOLLIK VA MAS’ULIYAT TAMOYILLARINI MUSTAHKAMLASHDA KOMPLAENS NAZORATI TIZIMI MUHIM O‘RIN TUTADI.

KASBIY BURCH VA fuqarolik mas’uliyati

Komplaens nazorati – bu sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash bilangina cheklanmay, avvalo ularning kelib chiqish sabablarini barvaqt aniqlash, korrupsiyaviy xavflarni baholash, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali boshqaruv vositasidir.

Favqulodda vaziyatlar tizimida komplaens nazoratining asosiy maqsadi – xizmat faoliyatining barcha yo‘nalishlarida qonuniylik, xolislik va shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlariga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, inson omili ta’sirini kamaytirish va korrupsiyaviy xavflarni bartaraf etishdan iborat.

Komplaens nazoratining eng muhim jihati shundaki, u jazolashga emas, balki huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Chunki har qanday korrupsion holat sodir bo‘lgandan keyin uni bartaraf etishdan ko‘ra, uning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik ancha samarali hisoblanadi. Shuningdek, korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabatni shakllantirish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini qaror toptirish ham komplaens nazoratining asosiy natijalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda har bir rahbar va xodim o‘z xizmat vazifalarini bajarishda halollik, xolislik va adolat tamoyillariga qat’iy amal qilishi, davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishi zarur.

Zero, korrupsiyaga qarshi kurash faqat alohida bo‘linma yoki mas’ul xodimlarning vazifasi emas. Bu – har bir davlat xizmatchisining kasbiy burchi va fuqarolik mas’uliyatidir. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, komplaens nazorati tizimini yanada takomillashtirish, preventiv choralarni izchil davom ettirish hamda jamiyatda halollik va qonuniylik muhitini mustahkamlash orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligi, fuqarolarning ishonchi va xizmatlar sifati yanada oshadi.

Sherzod TURSUNOV,
Buxoro viloyati FVB Shaxsiy xavfsizlik bo'limi boshlig‘i, mayor

TEJALGAN CHIQIMDAN CHIQQAN alanga

INSON HAYOT EKAN YO‘QOTISHLARGA DUCH KELAVERADI. BU YO‘QOTISHLAR KEYINGI QO‘LGA KIRITAJAK NE’MATLARIMIZNI QADRLASHNI, ASRAB-AVAYLASHNI, QOLAVERSA, XATO QILMASLIKNI O‘RGATADI. FAQAT YO‘QOTISHLAR SODIR BO‘LGANDA TO‘G‘RI XULOSA CHIQARA BILSAK KIFOYA.



Har doim besh daqiqalik tanaffusga chiqqanda tamaki tutatib, fikrlarini jamlaydigan qutqaruvchi muxbir qizni ko‘rdi-yu uni suhbatga chorladi. Yarim qolgan tamakisining boshini yanchib, darhol suhbatga tadorik ko‘rdi.

– Yong‘inlardan zerikmadingizmi? – qutqaruvchi suhbatni hazil bilan boshlashga tirishdi. Chunki yong‘in hikoyalarining aksariyati tushkun kayfiyat bag‘ishlardi.

– Siz zerikdingizmi? – tabassum bilan tik boqdi muxbir qiz. Bu javobdan ko‘ngli xotirjam tortgan qutqaruvchi suhbatdoshiga choy uzatib, hikoyasini boshladi.

– Ishini sevgan undan zerikmaydi. Xuddi siz kabi.

Bilasizmi, bir kishining hayotida falokat yuz berganda atrofidagi boshqalar xulosa chiqarsa edi ko‘ngilsiz hodisalar kamroq bo‘larmidi deb o‘ylab qolaman ba’zida. Yo‘q, albatta, o‘zida sodir bo‘lmaguncha ko‘zi ochilmaydi ko‘p odamlarning.

– Bilaman. Bu yil sodir bo‘lgan va siz chiqqan yong‘in chaqiriqlaridan biri – Chilonzor 19-kvartaldagi besh qavatli binoning ikkinchi qavatida joylashgan supermarket yonganida bu voqeani qog‘ozga tushirgan edim. Ammo ko‘p o‘tmay yana va yana supermarketlar yongani haqida xabar topdim. Rost aytasiz, ko‘p odamlarning peshonasi devorga urilmaguncha ko‘zi ochilmaydi.

– Shunday. Faqat bugun sizga aytib bermoqchi bo‘lganim supermarket yonishi haqida emas. Quyosh panelidan chiqqan yong‘in haqida. Umid qilamanki, bu siz uchun yangilik bo‘ladi.

Muxbir qiz ilgari quyosh panelidan chiqadigan yong‘inlar haqida eshitmagani uchun qiziqishi ortdi. Askar qurolini sozlagani kabi qog‘oz-qalamini hozirlab, butun diqqat nishonini suhbatga qadadi.

– Bugun ko‘p odamlar uyiga quyosh paneli o‘rnatayotganining asosiy sababi elektr xarajatlarini kamaytirish va uzluksiz elektr bilan xonadonini ta’minlash, – Astoydil tushuntirishga tirishdi qutqaruvchi. – Qish-u yoz elektrga ehtiyojimiz bormi bor. Endi bu ehtiyoj manbai tamoman tekinga tushadigan bo‘lsa kim ham sinab ko‘rishni istamaydi? Lekin shunisi ham borki, panellarni sifatli uskunalar bilan o‘rnatmasa yoki doimiy nazorat qilib turmasa turli ko‘ngilsiz hodisalar yuz berishi turgan gap.

2025-yil Olmazor tumani Ibn Sino dahasida joylashgan xonadonlarning birida sodir bo‘lgan yong‘inda uyning tomida joylashgan quyosh paneli simlarida qisqa tutashuv kelib chiqqan va bu tutashuv yong‘inga sabab bo‘lgan edi.

Elektr simi yonganda unga suv sepib bo‘lmaydi, bilasiz. Elektr tarmoqdan uzilgach maxsus ko‘pik sepiladi. Ammo bu yong‘inda yonayotgan joyga ko‘pik ham sepish mushkul edi o‘sha on. Chunki alangada panelning o‘zi emas, uning ostidagi tom yonardi. Shu sabab harqancha qiyin bo‘lmasin, tomdan avval panellarni chiqardik. Ha, yonayotgan olovning ichiga kirib, tomni panellardan “tozaladik”. Kimning yuzi, kimning qo‘li kuydi bu orada. Uyning tomi balandligi bois unga narvon bilan chiqqanmiz. Bilmadim qancha vaqtimiz ketdi. Harqalay panel yong‘ini qutqaruvchining ko‘p vaqtini o‘g‘irlashini his qilganman o‘shanda. Oqibatda 300-400 kv/m atrofida joy yongan.

Odamlar onda-sonda his qiladigan kuchli adrenalinni biz har kuni boshimizdan o‘tkazamiz. Shu qadarki, jarohatlanganimizni, hatto yonayotganimizni ham sezmay qolamiz ba’zan. Mana shu yong‘inda mening ham yuzimning bir qismi va qo‘lim qattiq kuygan ekan. Bir oy degan-da tuzaldim. Shunda ham chandig‘i qolgan, qarang. Ammo meni negadir jarohatim emas, uy egasi haqidagi o‘ylovlarim ko‘proq qiynardi. Chiqimni kamaytiraman deb uni oshirgani qoldi sho‘rlik...

Aziz MAHMUDOV,
Toshkent shahar FVBB Favqulodda vaziyatlarda boshqarish markazi boshlig‘i, podpolkovnik

Evrilish



Yong‘in o‘chirish xizmatiga yangi kelgan odam birdaniga alanga ichiga kirmaydi. U bungacha ming bir chig‘iriqda toblanadi. Hatto olov ichiga kirishga ruxsat berilganda ham avval o‘rtadagi odam bo‘lib yuradi. O‘rtadagi odam bu yosh qutqaruvchi degani. Odatda, stvolning boshini tutadigan odam eng tajribali yong‘in o‘chiruvchi, o‘rtada yoshrog‘i, undan keyin yana tajribali odam bo‘ladi. Maqtanishday tuyilsa ham aytay, men “o‘rtadagi odam” bo‘lib yurgan kezlarimdanoq odam qutqarishni boshlaganman.

Kislorod baloni gaz balonidan ham xavfli ekanini bilasizmi? Gaz balonida siqilgan havo bosimi 200 bo‘lsa, kislorod balonidagi bosim 300 ni tashkil qiladi. Bordi-yu u portlasa kimning yelkasida turgan bo‘lsa omon qoldirmaydi deyarli. Qutqaruvchi ana shunday xavfni yelkasida ko‘tarib yuradi. O‘zi omon qolishi uchungina emas, alanga ichida qolgan odamning ham hayotini asrab qolishi uchun. Men birinchi marta kislorod balonini yelkamga olganimda nigohim olovda bo‘lsa-da, diqqatim yelkamda bo‘lgan. Keyinchalik uni shu qadar tabiiy qabul qila boshladimki, bugun tana a’zolarimning bir qismiday his qilaman.

Hozir tajribam ortgan, yong‘inga stvolning boshini tutib, yangi kelganlarga bemalol ish o‘rgata olaman. Garchi hali oddiy askar bo‘lsam-da.

Sizga bu gal qarovsiz qolgan uylarning birida sodir bo‘lgan yong‘in haqida gapirib bermoqchiman. Nega aynan bu hikoya, chunki bunda men keksa bir insonning hayotini asrab qolishga hissa qo‘shganman. Har bir qutqarilgan inson hayoti qutqaruvchi uchun unutilmas hodisaday gap. Buni qayta-qayta eslashdan tolmaydi, aksincha, kuchlanadi odam.

Bugun yolg‘iz yashaydigan keksalar afsuski yangilik bo‘lmay qoldi. Odam qanday yoshi bir joyga borib qolgan yaqinini yolg‘iz qoldiradi hech aqlimga sig‘dira olmayman. Poytaxtning eng mashhur ko‘chalaridan birida ana shunday keksa bir kishi yolg‘iz yashardi. Kunlardan bir kun chol gazni yoqiq qoldirgan-u o‘zi televizor ko‘rayotib ko‘zi ilinib uyquga ketgan. Natijada esa deraza tirqishidan ichkarilagan shabada, katta alangaga sabab bo‘lgan. Olov isini sezgan qo‘shnilar yong‘in o‘chiruvchi-qutqaruvchilarga qo‘ng‘iroq qilib, ichkarida qolgan yolg‘iz odam haqida boxabar qilgandi. Omon bo‘lishsin, e’tiborli qo‘shnilar.

Tandir bo‘lib yonayotgan uy ichiga kirib borar ekanmiz, avvalo, o‘sha keksani qidirardik. Hali ko‘p ichkarilamasimizdan qo‘shni xona ostonasida hushsiz yotgan odamga duch keldik. Qutqaruv ekipajining eng navqiron xodimi bo‘lganim uchunmi, odamni tashqariga olib chiqish menga yuklatildi. Men cholga darhol qo‘shimcha kislorod niqobini taqib, tashqariga olib chiqdim. Tanasining katta qismi kuyganiga qaramay hanuz pulsi sezilardi. Aftidan yong‘inni payqagach tashqariga chiqishga uringan, ammo achchiq tutundan nafas olishi qiyinlashib yiqilgan, hushini yo‘qotgan, tanasi kuygan sari battar kuchsizlanib, harakatdan qolgan.

Bir keksaning tashqariga olib chiqadigan bir necha qadamlik yo‘lda qancha mashaqqat chekkanini kuygan tanasidan his qilish qiyinmas edi. Shu holda ham hayot uchun kurashayotgan cholning yashashga muhabbati va matonatini kuzatib, unga astoydil yordam berishga harakat qildim, tez tibbiy yordamni chaqirib, keksani shifokorlar ixtiyoriga topshirdim. O‘zim esa yong‘inni bartaraf etish uchun ichkariga qaytdim. Qaytar ekanman, endi o‘rtadagi odam emas, allaqachon tajribali qutqaruvchiday ishonch, ichki kuch bilan qadam tashlardim...

Ulug‘bek ERGASHEV,
oddiy askar

Hikoyalarni
Yulduz O‘RMONOVA oqqa ko‘chirdi.

CHORVACHILIK QISHLOQ XO‘JALIGINING ENG YETAKCHI TARMOQLARIDAN BIRI HISOBLANIB, AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI, SANOATNI ESA XOMASHYO BILAN TA’MINLASHDA MUHIM ROL O‘YNAYDI. BIROQ, CHORVA MOLLARI ORASIDA YUQUMLI KASALLIKLARNING TARQALISHI NAFAQAT IQTISODIY ZARAR KELTIRIB CHIQARADI, BALKI INSONLAR SALOMATLIGIGA HAM JIDDIY XAVF TUG‘DIRADI. SHU SABABLI, YUQUMLI KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARINI BILISH O‘TA MUHIMDIR.



DEHQONCHILIK BIR YILDA, CHORVACHILIK QIRQ YILDA

Bugungi kunda chorva mollari orasida bir qator yuqumli kasalliklarning uchrashi tabiiy hol bo‘lib qoldi. Ba’zi yuqumli kasalliklar borki, ularning oldini olish va xavfsizlik choralarini ko‘rish nihoyatda zarur. Masalan, kuydirgi kasalligini olaylik. Bu kasallik o‘tkir yuqumli kasallik hisoblanadi va hayvonlarning hamma turlariga, shuningdek, odamga ham yuqadi. Kasallangan hayvon juda bo‘shashib, ishtahasi yo‘qoladi, tana harorati 41–42,5 °C ga ko‘tariladi, shilliq pardalari ko‘karadi, hayvon halloslaydi. Ko‘plarining terisida shishlar paydo bo‘ladi, qoramol vaqti-vaqti bilan bezovtalanadi, ich ketishi va siydik qizarishi kabi klinik belgilar namoyon bo‘ladi. Brutsellyoz kasalligi xalq tilida qora-oqsoq kasalligi ham deyiladi. Mazkur kasallikda hayvonlarda homila tushishi homiladorlikning ikkinchi yarmida kuzatiladi. Bunday belgi bilan kasallangan hayvonlarga aniq diagnoz qo‘yilguncha sutini iste’mol qilmasdan turish kerak.

Hozir esa qoramollarda og‘ir kechuvchi kasalliklardan yana biri oqsil xastaligiga batafsil to‘xtalamiz. Kasallik og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatlarida, yelin terisida va oyoqlarda yaralarning hosil bo‘lishi bilan ifodalanadi. Oqsil bilan asosan, qoramollar, qo‘y-echkilar, cho‘chqa, tuya, kam bo‘lsa-da odamlar, ayniqsa kasal hayvon bilan muloqotda bo‘lgan veterinariya xodimlari, sut sog‘uvchilar, molboqarlar kasallanadi.

Kasallikdan o‘lim nisbati pastligiga qaramasdan, emlanmagan hayvonlarga yuqish ehtimoli 100 foizga yaqin. Kasallikka chalingan hayvonlarni xo‘jaliklarda saqlash muddati qisqaradi, sut va bola berish qobiliyati pasayadi hamda kasallikni davolash va oldini olish uchun katta mablag‘ sarflanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, kasallangan hayvonlardan 24,8% da tuyoq, 13,2% da mastit, 0,6% da bachadon yallig‘lanishi kasalliklari rivojlanadi. Yosh buzoqlarda kasallik klinik belgilarsiz kechib, o‘z vaqtida davolanmasa o‘lim holatini yuzaga keltiradi. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan virus tashqi muhit ta’siriga chidamli. Masalan, yoz oylarida pichanda 7-9 kun, kuz oylarida 35 kun, qish oylarida 50-60 kun davomida saqlanadi.

Kasallangan hayvonlar organizmidan qo‘zg‘atuvchi 14 kun davomida tashqi muhitga so‘lagi, balg‘ami, axlati, siydigi va boshqalar orqali ajralib turadi. Oqsil kasalligi o‘zining tarqalish tezligi bilan boshqa yuqumli kasalliklardan keskin farq qiladi. Birinchidan, bu kasallik juda tez tarqalib, bir-ikki mamlakat hattoki, qit’alarni ham qamrab olishi mumkin. Ikkinchidan, bu kasallikni qo‘zg‘atuvchi virusning 7 ta tipi – A, O, C, Sat-1, Sat-2, Sat-3, Osiyo-1 va saksonga yaqin serotiplari mavjud. Bizning yurtimizda A, O va Osiyo-1 turlari kasallik qo‘zg‘atadi.

KASALLIK HAYVONLARGA QANDAY YUQADI?

Kasallangan hayvonlar bilan sog‘lom hayvonlarning bir joyda saqlanishi, kasallangan hayvonlarning so‘lagi, balg‘ami, siydik va axlati, ishchi xodimlarning kiyim-kechaklari hamda asbob-uskunalari sog‘lom hayvonlarga ishlatilishi, xo‘jalik atrofida kemiruvchilar, qushlar va daydi itlarning ko‘payishi, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlarining talab darajasida emasligi, sug‘orish, yem-xashak almashish hamda sun’iy urug‘lantirish vositalari orqali yuqishi mumkin.

KASALLIKNING KLINIK BELGILARI

Kasallik qo‘zg‘atuvchisining klinik belgilari tezda namoyon bo‘lavermaydi. Virus organizmda bir muddat ko‘payadi. Bunga inkubatsion davr deyiladi va bu davr 2–14 kun orasida o‘zgarib turadi. Hayvonda tana haroratining ko‘tarilishi, mayuslik, til, lab, lunj, milklarda avvaliga qizarish, keyin ichlari suv bilan to‘la shishlar paydo bo‘ladi va 24 – 48 soatdan so‘ng bular yorilib, o‘rnida yara hosil bo‘ladi. Shuningdek, ishtahasizlik, og‘izdan so‘lak oqishi va og‘izni chapillatish, tuyoqlar orasida pufakchalar va yaralarning paydo bo‘lishi, oqsoqlik, sut berishning keskin kamayishi va bo‘g‘oz hayvonlarda bola tushishi kuzatiladi.

QANDAY AMALIY CHORALAR KO‘RISH KERAK?

Xo‘jalik yoki fermaga kirish joylariga hayvonlar va transport vositalarining o‘tishi uchun dezinfeksion vositalar bilan ishlov berilgan hovuzchalar, ishchi-xodimlar uchun dezinfeksiya vositalari shimdirilgan gilamchalar tashkil qilinib, ular veterinar tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishi shart! Xo‘jalik yoki ferma hududiga begona shaxslar hamda transport vositalarining kirishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Hayvonlarni saqlashda zoogigiyenik ko‘rsatkichlar (namlik, harorat, havo aylanishi, tabiiy va sun’iy yorug‘likni tushishi, ammiak-is gazi miqdori) me’yorida bo‘lishiga amal qilish, sifatli ozuqa va suv bilan ta’minlash, go‘nglarini o‘z vaqtida chiqarib tashlash, ishchi-xodimlarni maxsus kiyim-kechaklar, asbob-anjomlar bilan o‘z vaqtida ta’minlash, dam olish, ovqatlanish, yuvinish va sanitariya xonalarini tashkillashtirish, ishchi-xodimlarni rejali ravishda tibbiyot ko‘rigidan o‘tkazish, daydi hayvonlarni, mushuk, it, qushlarni ferma binosi va qo‘yxonalarga yaqinlashtirmaslik, sichqon va kalamushlarga qarshi deratizatsiya tadbirlarini o‘z vaqtida o‘tkazish zarur.

AMALIY TAVSIYALAR


Kasallikka shubha paydo bo‘lganda, veterinar yetib kelgunga qadar kasal hayvonni alohida saqlash va kasallik tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Binoga kirish joyiga “Yaqin kelinmasin” yozuvi tushirilgan lavha osib qo‘yib, hayvon qarovchilariga molxonadan tashqariga chiqishga izn bermaslik zarur.

Hayvonlar oqsil kasalligiga chalinsa, albatta, veterinariya vrachiga xabar bering. Davlat veterinariya bo‘limining holatni o‘rganib chiqib, agar kasallik tasdiqlansa, karantin chora-tadbirlarining qaror loyihasi ishlab chiqiladi va karantin e’lon qiladi. Kasallangan va kasallikka shubha qilingan hayvonlarni maxsus izolyatorlarda saqlang. Kasallangan hayvonlarni parvarishlagan xodimlarni ham alohida qiling. Kasallangan hayvonlar turgan molxonada oyoq ostiga tushgan o‘tlar va go‘nglarni yoqib yuboring. Joylarini tozalab va dezinfeksiyalovchi vosita bilan yuving. Kasallik chiqqan hudud hayvonlarining sutlarini ichmang va boshqalarga bermang. Ish tugagach, sut yig‘ish va qayta ishlash idishlarini yuving va dezinfeksiya qiling! Hayvon mahsulotlari (sut, go‘sht, teri, shox, tirnoq va boshqalar) shu hududdan tashqariga chiqarilmaydi. Vrach sizga buyurgan vazifalarni kamchiliksiz bajaring. Veterinar bilan maslahatlashmay turib dori yoki dezinfeksiyalovchi vositalardan foydalanmang.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, chorva mollari o‘rtasida oqsil va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi nafaqat chorvachilik xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazadi, balki insonlar salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Kasallik qo‘zg‘atuvchi viruslarning tashqi muhitga o‘ta chidamliligi va tez tarqalish xususiyati veterinariya-sanitariya qoidalariga qat’iy amal qilishni talab etadi.

Rushana ZARPULLAYEVA,
O‘zJOKU talabasi







“TELEFON” SINDROMI

INSONIYAT TARIXIDA HECH BIR IXTIRO MOBIL TELEFONCHALIK QISQA VAQT ICHIDA HAYOTIMIZGA CHUQUR KIRIB BORMAGAN BO‘LSA KERAK. BIR PAYTLAR ALOQA VOSITASI, ODAMLARARO MULOQOT QUROLI SIFATIDA YARATILGAN BU KICHIK QURILMA BUGUN BIZNING OLAMIMIZGA AYLANDI. KUTUBXONAMIZ HAM, DO‘KONIMIZ, SURATXONAMIZ, MUSIQACHI RADIOMIZ, TELEVIZORIMIZ HAM SHU. HATTO SIRDOSHIMIZ, SUHBATDOSHIMIZGA AYLANDI.

Telefon insonga xizmat qilish uchun yaratilgan edi. Asta-sekin insonni o‘z quliga aylantirdi, insonning o‘zi telefonga xizmat qila boshladi.

Ertalab ko‘z ochishimiz bilan birinchi bo‘lib quyoshga, olis tog‘larga, keng osmonga, shivirlayotgan daraxtlarga, sayrayotgan qushlarga emas, telefon ekraniga qaraymiz. Kechasi esa ko‘zimiz yumilguncha ekran nuridan uzilmaymiz. Ba’zan kun davomida necha bora telefonni qo‘limizga olganimizni hatto eslamaymiz.

Bu shunchaki odat emas. Bu – hayot tarzining, hatto inson genlarining o‘zgarishi.

Mutaxassislar bu holatni shartli ravishda “telefon sindromi” deb atashmoqda. Bu insonning telefonga haddan ziyod bog‘lanib qolishi natijasida yuzaga keladigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy muammolar majmuasi uchun tashxisdir.

Telefonning eng katta ta’siri vaqtni emas, diqqatni o‘g‘irlashidir. Inson miyasi chuqur fikrlash uchun tinchlik va uzluksiz diqqatga muhtoj. Ammo har bir ogohlantirish ovozi, yangi xabar, qisqa video fikr zanjirini uzib yuboradi. Natijada biz uzoq o‘qishni, sabr bilan kuzatishni va chuqur mulohaza qilishni asta-sekin unutib boryapmiz.

Telefonga mukka tushgan biz go‘yo boshqalar xabar topgan yangiliklarni eshitmay, g‘aflatda qolayotganday, tarmoq maydoniga oshiqamiz. Uyquni boy beramiz, uni tuta olmay yana tarmoqqa kiramiz, chalg‘iymiz, vaqtni sovuramiz.

Ammo chinakam g‘aflat boshqa tomonda – ayni shu uyqusizlikda bo‘ladi.

Biz, avvalo, kunlik mutolaadan oliqlashamiz. So‘nggi yillarda kitob mutolaasining keskin kamayib borayotgani ham katta ulushda uyqu madaniyatining buzilishi bilan bog‘liq. Ilgari odamlar kechqurun kitob o‘qir, bahslashar, fikr yuritar, xayol surardi. Bugun esa kitob o‘rnini bir necha daqiqalik son-sanoqsiz videolar egallab bo‘ldi. Miyamiz bizning mulohaza va mushohadamizga zor qolmagan tasvirlarga o‘rganib qolmoqda. Bu esa diqqatning uzoq vaqt bir nuqtaga jamlanish qobiliyatini pasaytirib yubormoqda.

Psixologlar diqqatni insonning eng qimmat intellektual boyligi deb hisoblashadi. Demak, Allohning insonga bergan cheksiz inoyatlaridan biri – diqqat. Diqqat tarqalgan joyda ijod ham, ilm ham, ixtiro ham tug‘ilavermaydi yoki juda kechikadi. Tasavvur qiling: Isaak Nyuton olma daraxti ostida o‘tirib, tabiat hodisasi haqida chuqur o‘y surgan. Agar u har o‘n soniyada telefoniga kelgan xabarlarni tekshirganida, ehtimol, bu mulohazalar umuman tug‘ilmasdi.

Charlz Darvin yillar davomida bitta masalani kuzatgan. Abu Rayhon Beruniy osmon jismlarini tinimsiz o‘rgangan. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasidagi kuzatishlar bir necha daqiqalik emas, yillab davom etgan mehnat mahsuli edi.

Buyuk kashfiyotlarning deyarli barchasi bir umumiy xususiyatga ega: ular chuqur diqqat, sabr va uzoq muddatli kuzatish natijasida paydo bo‘lgan.

Bugun esa olimlar “diqqat iqtisodiyoti” degan tushunchani ishlatishmoqda. Chunki raqamli platformalar insonning e’tibori uchun kurashadi. Har bir xabar, ogohlantirish, qisqa video miyani yana va yana chalg‘itadi. Natijada odam bir soat kitob o‘qiy olmaydi, ammo ikki soat ekran qarshisida vaqt qanday o‘tganini ham sezmay qoladi.

Bugun restoranga kirsangiz, bir stol atrofida o‘tirgan oilaning har bir a’zosi o‘z ekraniga tikilib o‘tirganini ko‘rasiz.

Ona farzandi bilan emas, telefon bilan. Farzand otasi bilan emas, ijtimoiy tarmoq bilan. Bir xonada birga o‘tirgan odamlar bir-biriga emas, dunyoning boshqa chekkasidagi begona insonlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shunday qilib, ekranlar qalblarni asta-sekin uzoqlashtirmoqda.

Mehr-oqibat suhbatdan boshlanadi. Suhbat esa ko‘zlarga qarab mehr bilan so‘zlashishdan. Telefon esa ko‘zlarni ekranga bog‘lab qo‘yadi. Afsus chekmay ilojimiz yo‘q.

Tabiat ham insondan xafa bo‘layotgandek. Bog‘da sayr qilayotgan odam daraxtlarga qaramaydi, qushlarning ovozini eshitmaydi, shamolning mayin nafasini sezmaydi. Uning nazari ekranda. Aslida esa buyuk shoirlar, rassomlar va olimlarning ilhomi ko‘pincha tabiat bag‘ridan tug‘ilgan.

Alisher Navoiy gul va bulbul, Nargis va Shamshod haqida bejiz yozmagan. Chingiz Aytmatov tabiatni inson taqdiri bilan bejiz bog‘lamagan. Leonardo da Vinchi qushlarning parvozini yillab kuzatmaganida, ehtimol, uning dahosi boshqacha namoyon bo‘lardi.

Tabiat kuzatilmagan joyda hayrat kamayadi. Hayrat yo‘qolgan joyda esa ijod ham so‘na boshlaydi.

Buyuk kashfiyotlar shoshilishdan emas, diqqatdan tug‘iladi. Nyutonning olmasi, Arximedning hammomi, Mirzo Ulug‘bekning rasadxonasi...

Ularning barchasini bir jihat birlashtiradi. Ular uzoq vaqt bir masala haqida o‘ylay olgan, izlangan, sinchiklab ilm olgan insonlar edi. Ilmiy izlanish sabr talab qiladi. Telefon esa insonni doimiy shoshilishga o‘rgatmoqda. Har soniya yangilik, har daqiqa yangi xabar, har lahza yangi tasvir. Bu esa miyani chuqur fikrlash emas, tez almashuvga moslashtiradi.

Psixologlar yana bir qiziq holatni qayd etishadi. Ko‘pchilik telefonni zerikkanidan emas, yolg‘izlanib qolish, bexabarlikdan qo‘rqqanidan qo‘liga olar ekan.

Navbat kutayotganda ham, avtobusda, bo‘sh vaqt topildi deguncha telefon. Holbuki, aynan ana shu qisqa sukut lahzalarida insonning eng yaxshi fikrlari tug‘iladi. Ko‘plab yozuvchilar asar syujeti aynan sayr paytida kelganini aytgan. Kashfiyotlar ham ko‘pincha tinch fikrlash natijasida yuzaga chiqqan.

Albatta, bugungi ahvolimizga telefonning o‘zi aybdor emas. U oddiy bir vosita. Aslida u bilan kitob ham o‘qish mumkin, ilmiy maqola ham izlash mumkin. Yaqinlar holidan ham xabar olish mumkin. Masala qurilmada emas, masala uning hayotimizni boshqarib qo‘yayotganida. Mutaxassislar oddiy, ammo samarali qoidalarni tavsiya qilishadi. Siz ham bunga iroda qila olarmikinsiz?

1. Kunning ma’lum soatlarini “telefonsiz vaqt” deb belgilash.

2. Oila davrasida telefonni chetga qo‘yish.

3. Uxlashdan kamida bir soat oldin ekrandan voz kechish.

4. Har kuni kamida o‘ttiz daqiqa kitob mutolaasiga vaqt ajratish.

5. Tabiat qo‘ynida telefonsiz sayr qilish.

6. Har hafta bir kunni ijtimoiy tarmoqlarsiz o‘tkazish.

Bu qoidalarning har biri insonning diqqatini, xotirasini va ruhiy osoyishtaligini tiklashga xizmat qiladi. Ekran ortida o‘tgan har bir soat kitobdan o‘g‘irlangan vaqt bo‘lishi mumkin. Har bir behuda surilgan sahifa farzand bilan qilinmagan suhbatga aylanishi mumkin. Har bir behisob xabar tabiat qo‘ynida o‘tkazilmagan bir lahzani olib ketishi mumkin. Inson buyuk kashfiyotlarni mashinalar yoki telefonlar emas, balki tafakkuri bilan yaratgan. Inson tafakkuri esa uzoq mulohazali sukutni, diqqatni, kitobni, mehnatni va mushohadani talab qiladi.

Telefon uyqu soatlariga ham daxl qilmoqda. Ko‘plar tuni bilan ham telefon ekraniga tikilib tong ottirib yubormoqda. Avvallari g‘aflat deganda uyquda bo‘lib, biror hodisadan bexabar qolishga aytilardi. Bugun esa ijtimoy tarmoq va uyqusizlik insonning salomatlik, kitobxonlik, tafakkur qilish ne’matlaridan bebahra bo‘lishiga olib kelmoqda.

Chindan ham, XXI asrning haqiqiy g‘aflati shunda: biz uxlash uchun emas, yashash uchun vaqt izlayapmiz. Holbuki, yaxshi uyquning o‘zi ham mazmunli hayotning eng muhim shartlaridan biri.

Telefonni hayotimizdan chiqarish kerak degan fikrdan yiroqmiz va aslo bunday bo‘lmaydi ham. Ammo uning chegaralarini belgilash zarur. Zero, qo‘limizdagi kichik ekran butun dunyoni ko‘rsatishi mumkin, ammo u hech qachon kitobning hidi, ona ko‘zidagi mehr, farzandning samimiy kulgisi, qushlar sayrashi yoki quyosh botishining betakror jozibasi o‘rnini bosolmaydi.

Ba’zan haqiqiy hayotni ko‘rish uchun ekranga emas, boshimizni ko‘tarib atrofimizga qarashning o‘zi kifoya.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

Oybarchin yori (doston)
Shoh va astronom ... Ulug‘bek
Mansub, tegishli
... Monte Kristo (Edmon Dantes)
Beton teshuvchi uskuna
Ulkan sport inshooti
Hamma tomon, borliq
Mehr-..., qadr-qimmat
“Umrbod xayr!”
Hind arbobi ... Gandi
Telefon chaqiruv signali
“Hayrat ul-...” (Navoiy)
Kam uchraydigan, noyob
Ko‘rsatish olmoshi
Ulfat, ...-og‘ayni
Shifobaxsh qaynoq loy
Na issiq, na sovuq
Toshkentdagi mavze
“Doskani tozala!” (maktab)
“Sochi uzun, aqli ...”
“Oq ...lar” (Umida)
Moyana, oylik
Gana poytaxti (G‘arbiy Afrika)
Tez eruvchi qand
Idishning qalpog‘i
So‘mning tangasi
Ziyo, yorug‘lik
Ayyor odam laqabi
Baholar daftari
Paxta urug‘i
Choy qoldig‘i
“Eski ..., eski tos!”
Kalit (sinonim)
“Afsus, essiz!”
Musobaqa bosqichi
Qismat, peshonaga yozilgani
Daryo yo‘nalishi
Taraqqiyot, rivojlanish
P.Durov kompyuter messenjeri
Yak, .., se, chor
“Lazgi”, “Tanovar”, “Lambada”,
Sanoq so‘zi
Almashinuvli ish
Chama, taxmin
“Vertolyot” hashorat
Iqtidor, qobiliyat
Signalizatsiya tovushi
Teatrga taklif plakati
Habash foto-model ... Kempbell
Yopishqoq metall
Kosta-... (davlat, Markaziy Amerika)
Robin Gud quroli
Yog‘ochga o‘yilgan bezak
Mot bo‘ladigan shaxmat figurasi
Yurt, ona diyor
Luchchak, zardoli (meva)
Tevarak, atrof-...
Skanvord to‘tiqushi
Tinglanadigan axborot vositasi
Erkin, hur
Mult-filmdagI sho‘x qizaloq
Shokolad kukuni
Sirli raqam
“Titanik”-dagi qo‘shiqchi Selin ...
Karatechi aktyor Jeki ...
Visol, diydor
Hududiy saylov uyushmasi
Kuzatuvchi video kamera
G‘oya, reja
Minora transporti
Xorvatiyalik futbolchi Luka ...
Massagetlar malikasi
“Disko ...i” (Jimmi)
Saraton kasali shifokori
“Boshingga qilich kelsa ham rost ...!”
1966 yilgi Toshkent fojiasi
Yozma ish turi
Buxorodagi obida qal’a
Mumtoz shoir Jaloliddin ...
Bashariyat, insoniyat
Minbarda ma’ruza qilish
“... boshqa, uqish boshqa
Sharq yakka-kurashi turi
Choy, ayron, kvas (umumiy)
Balxash ko‘li irmog‘i
Ishora, belgi
Dildagi ezgu niyat
Toshkent viloyatidagi daryo
Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi tog‘lik
Qadrli, ardoqli
To‘da, jamoa
Okeanshunos ... iv Kusto
Tag, tub
“Ko‘pirtirilgan yolg‘on
“Va’daga vafomardning ...”
Tutqich bermas, bo‘ysunmas
Matematik noma’lum son
...bik, ...mush, ...ndalik
Ro‘zg‘or, xonadon
Dono, bilimdon
Mashina turadigan bino
“Yigit so‘zidan, ... izidan qaytmas!”
Hindular qabilasi
Navro‘z taomi
Harorat, iliqlik



Tuzuvchi: **O.XUDOYQULOV**

Qadimdan odamlar tabiat hodisalarini kuzatib, bo‘ron va zilzilalarni oldindan aniqlashga urinishgan. Bugungi kunda ham tabiatning ajralmas qismi bo‘lgan hayvonot olamining ushbu sirli va g‘aroyib sezgirligi insoniyat uchun eng ishonchli favqulodda ogohlantirish tizimi bo‘lib qolmoqda.

Qutqaruvchi hayvonlarning sirli olami



Favqulodda vaziyatlar sohasi xodimlari va qutqaruvchilar uchun tabiiy fojialarning oldini olish, talafotlarni kamaytirish va aholini o‘z vaqtida xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish har doim birinchi darajali vazifa hisoblangan. Bugungi kunda sun’iy yo‘ldoshlar, seysmograf va radiolokatsion stansiyalar kabi eng zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilayotganiga qaramay, tabiatning o‘zi yaratgan bir mo‘jiza bor – u ham bo‘lsa jonzotlarning tabiiy ofatni oldindan sezish qobiliyatidir. Tabiat har doim insoniyatga xavf yaqinlashayotgani haqida ishora beradi, faqat bu ishoralarni to‘g‘ri his qilish va tushunish lozim.

Olimlar bir necha yuz yillar davomida hayvonlarning seysmik va meteorologik hodisalarga nisbatan favqulodda sezgirligini o‘rganib kelishmoqda. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishidan bir necha soat, ba’zan esa bir necha kun avval hayvonot olami o‘zini g‘ayritabiiy tuta boshlaydi. Xo‘sh, ulardagi bu “sehrli” sezgi ortida qanday ilmiy sirlar yashiringan? Nega eng murakkab elektron uskunalar sezmagan yer tebranishini oddiy chumoli yoki ilon oldindan biladi?

Seysmik faol hududlarda yashovchi aholi orasida “zilziladan oldin ilonlar va qurbaqalar inidan chiqib ketadi” degan naql yuradi. Bu shunchaki afsona emas, balki qat’iy ilmiy asosga ega bo‘lgan haqiqatdir.

1975-yilda Xitoyning Xaychen shahrida yuz bergan voqea buni to‘liq isbotlagan. Qishning qahraton sovuq kunlarida, harorat minus darajada bo‘lishiga qaramay, yer ostida uyquda yotgan yuzlab ilonlar o‘z inlaridan chiqib, qor ustida muzlab o‘la boshladi. Bu holatni kuzatgan seysmologlar va favqulodda xizmatlar zudlik bilan shaharni evakuatsiya qilishga qaror qildi. Oqibatda, bir necha kundan so‘ng sodir bo‘lgan 7.3 balldan yuqori dahshatli zilzilada yuz minglab insonlarning hayoti saqlab qolindi.

Shu o‘rinda savol paydo bo‘ladi. Xo‘sh, ilonlar qanday qilib yer bag‘ridagi o‘zgarishni birinchi bo‘lib sezadi?

Olimlar buni kuzatishlar asosida baholaydilar. Ilonlarning tanasi yerga to‘liq tegib turgani uchun ularning terisidagi va umurtqasidagi o‘ta sezgir retseptorlar yer osti jinslarining minimal tebranishlarini yaxshi his qiladi. Zilziladan oldin yer po‘stlog‘ida hosil bo‘ladigan ultratovushlar va past chastotali tebranishlar (infratovushlar) ilonlarga kuchli og‘riq va vahima beradi. Ular uchun sovuq qor ustida o‘lish yer ostidagi dahshatli tebranishdan ko‘ra xavfsizroqdek tuyuladi. Demak, ilonlar bu zaminning olis tebranishlarini ham ilg‘ay oladilar.

Odatda, biz oyog‘imiz ostidagi mitti chumolilarga uncha e’tibor bermaymiz. Ammo mana shu mitti jonzotlarda ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, Germaniyaning Duysburg-Essen universiteti olimlari ko‘p yillik kuzatuvlaridan so‘ng hayratlanarli xulosaga kelishdi: qizil o‘rmon chumolilari yer tebranishidan kamida 24 soat avval o‘z hayot tarzini tubdan o‘zgartirar ekan.

Odatda kechasi chumolilar o‘z inlarining chuqur qatlamlariga kirib uyquga ketishadi. Ammo 2.0 balldan yuqori seysmik aktivlik kutilayotgan hududlarda chumolilar kechasi inlaridan batamom chiqib ketadi va uyaga qaytmaydi. Ular in ustida to‘planib, go‘yo xavf o‘tib ketishini kutishadi. Buning sababi — chumolilarning tanasida Yerning elektromagnetik maydonidagi o‘zgarishlarni his qiluvchi maxsus neyronlar borligidadir. Zilzila oldidan yer ostida yig‘ilgan gazlar va elektrostatik zaryadlar tashqariga sizib chiqa boshlaydi va chumolilar buni darhol sezadi.

Uy hayvonlari, xususan, mushuk va itlar ham favqulodda holatlar va natural ofatlarning sodir bo‘lishini oldindan seza oladi. Zilzilaga bir necha soat qolganda mushuklar bezovta bo‘lib, bolalarini xonadondan tashqariga tashiydi, eshik va derazalarga uriladi. Itlar esa tinmay hurib, egalarining kiyimlaridan tortqilab, ularni ochiq maydonga olib chiqishga harakat qiladi. Bu favqulodda vaziyatlar amaliyotida ko‘p bor kuzatilgan jonli hayotni saqlash alomatidir.

Inson qulog‘i 20 Gersdan past bo‘lgan tovushlarni (infratovush) eshitmaydi. Lekin fil, it, mushuk hamda ko‘plab qushlar 1 o‘lchamli tebranishlarni ham eshitish va his qilish qobiliyatiga ega. Zilzila sodir bo‘lishidan oldin yer bag‘ridan aynan inson eshitmaydigan past chastotali infratovushlar tarqaladi va bu hayvonlarda vahimani uyg‘otadi.

Favqulodda vaziyatlar faqat yer tebranishidan iborat emas. Suv toshqinlari, bo‘ronlar, sunami va tayfunlar ham insoniyat uchun katta xavf tug‘diradi. Bu o‘rinda suv olami va qushlarning xulq-atvori belgi vazifasini o‘taydi.

2004-yilda Hind okeanida sodir bo‘lgan dahshatli sunamidan ilgari, to‘lqinlar qirg‘oqqa yopirilishidan bir necha soat avval, Shri-Lanka va Tailanddagi yovvoyi fillar, kiyiklar hamda qushlar qirg‘oq bo‘yidan qochib, baland tog‘li va ichkari hududlarga qarab chopishgan. Mahalliy aholi buni sezmay qolgan va minglab insonlar halok bo‘lgan, lekin tabiat bag‘ridagi jonzotlarning deyarli barchasi omon qolgan. Fillar okean tubidagi ulkan siljish hosil qilgan past chastotali tebranishni oyoqlari ostidagi maxsus nerv to‘qimalari orqali tuygan va xavfni to‘g‘ri baholagan.

Qushlar va asalarilar atmosfera bosimining keskin tushib ketishini o‘ta aniqlik bilan sezishadi. Kuchli to‘fon, dovul yoki sel kelishidan oldin atmosfera bosimi keskin o‘zgaradi. Asalarilar uyalaridan tashqariga chiqmay qo‘yadi, qushlar esa pastlab uchadi yoki daraxtlarning eng qalin shoxlariga joylashib oladi. Bu xatti-harakatlar – yaqinlashayotgan gidrometeorologik xavfning yaqqol belgisidir.

Bugungi kunda dunyo olimlari va seysmologlari hayvonlarning ushbu mo‘jizaviy sezgirligini sun’iy intellekt hamda texnologiyalarga tatbiq etish ustida ishlamoqda. Ushbu yo‘nalish biomimetika (tabiatdagi mexanizmlarni texnikaga tatbiq etish ilmi) deb ataladi. Agar insoniyat hayvonlardagi biosensorlar va intuitiv sezgi biologiyasini to‘liq shifrlay olsa, kelajakda zilzila va favqulodda vaziyatlarni bir necha soat oldin soniyagacha aniqlik bilan xabar beruvchi mutlaqo yangi avlod datchiklari yaratiladi. Lekin texnologiya har qancha rivojlanmasin, qutqaruvchilar, favqulodda vaziyatlar xodimlari va oddiy fuqarolar atrofimizdagi tabiat ko‘rsatkichlariga har doim sinchkovlik bilan qarashlari lozim. Jonzotlarning sababsiz bezovtalanishi, uy hayvonlarining g‘ayritabiiy harakatlari, atrof-muhitdagi keskin jimjitlik yoki aksincha, jonivorlarning qichqirig‘i – tabiatning insoniyatga yo‘llayotgan eng birinchi ogohlantirish signalidir.

Tabiat – buyuk muhandis va ayni paytda eng mukammal ogohlantirish tizimidir. “Mo‘jizakor olam”ning har bir a’zosi, eng mitti chumolidan tortib ulkan filgacha, o‘zida yashirin mo‘jizalarni saqlaydi. Ushbu mo‘jizalarni tushunish, ularni o‘rganish va tabiat bilan uyg‘unlikda yashash – nafaqat ilm-fanning, balki insonlar xavfsizligini ta’minlash va hayotini saqlab qolishning eng muhim kalitlaridan biridir.

Guli IKROM qizi

Vaziyat
gazetasi
MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir:
podpolkovnik
Rustam ALIMOV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Dilmurod DO‘ST
Navbatchi muharrir:
D.Do‘stbekov
Musahhih:
B. Yunusova
Sahifalovchilar:
M. Hamroyev
B. Salohiddinov

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh. Rashidov ko‘chasi, 17-uy.
@vaziyat_muhofaza

O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro‘yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.
Buyurtma № G-749.
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.
Adadi – 20338 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko‘rinishda o‘qishingiz mumkin:

Indeks:
yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382